

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

**GEOGRAFIK TADQIQOT
USULLARI VA USLUBLARI**

fanidan ma'ruzalar matni



Termiz

Ushbu fanidan ma'ruzalar matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bakalavr bosqichi davlatta'lim standartiga kiritilgan «Geografik tadqiqot usullari va uslublari» predmeti yuzasidan namunaviy dastur asosida yoziladi.

«Geografik tadqiqot usullari va uslublari» fanidan ma'ruza darslarida olingan nazariy bilimlar amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish orqali yanada mustaxkamlash maqsadida tayyorlangan ushbu matnlarda geografik qobiqning tarkibiy qismlariga oid vazifalar etarlichi berilgan. Ma'ruzalar matnining mazmunini yoritishda jadval va rasm sxemalar berilgan bo'lib ular talabalarning bilimlarini yanada boyitadi.

Tuzuvchi: geografiya kafedrası
o'qituvchisi A. Sattorov

Ma'sul muharrir: g.f.n., dots. Q. Allanov

Taqrizchi: g.f.n. H. Abdunazarov

200__ yil __-avgust kuni Tabiiyot-geografiya fakulteti ilmiy kengashining 1-sonli yig`ilishida tasdiqlangan.

Fakultet dekani

dots. B. Xoliqnazarov

200__ yil __-avgust kuni geografiya kafedrasining 1-sonli yig`ilishida muxokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

g.f.n. H. Abdunazarov

MAVZU: TABIIY GEOGRAFIK TADQIQOT
USLUBLARI O`KUV KURSINING MAKSADI. VAZIFALARI VA MAZMUNI

REJA

- 1 . Kursning maqsadi
2. Kursning vazifalari
3. Kursning mazmuni

1. Fundamental va amaliy yo`nalish fanlarining barchasi ilmiy — tadqiqot ishlarini o`ziga xos metodologiyasi va ilmiy ish olib borish usullari bo`ladi. Har bir fanning metodologiyasi va tadqiqotlarini olib borilishi uchun usublarning mavjudligi bu fanlarning rivojlanishini ta`minlaydi. Jumladan, geografiya

fanlari tizimining xam metodologik asosiy tadqiqot uslublari mavjud. Vaxolangki, biz sizlar bilan asosan hurmatli talabalar tabiiy geografik tadqiqot uslublarini iloji boricha atroflicha ko'rib chiqishga xarakat qilamiz. Haqiqatdan, tabiiy geografiyada ilmiy — tadqiqot ishlarining metodologik asosi shunda ko'rinadiki, tabiatdagi xar bir ob'ekt va hodisaning tadqiq qilishda nimadan . boshlab nimada tugatish kerakligini yoritib beruvchi ko'rinishlari bo'ladi aynan mana shu ilmiy — tadqiqotning metodologik asosi sifatida maydonga chiqadi.

Tabiiy geografik tadqiqot uslublari o'quv kursining oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bu — Davlat universiteti talabalariga tabiiy geografiya fanidan ilmiy — tadqiqot ishlarini qanday olib borish kerakligi asos bo'ladigan fandr. O'zmizga ma'lumki. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida, 17 va 18 — asrlarda ham geografiya tabiat, iqtisodiyot va dunyo aholisi xaqidagi yagona fan sifatida rivojlangan. O'sha davrlarda bu fan aholi xo'jalik faoliyatini eng kerakli ilmiy ma'lumotlar bilan ta'minlab kelgan. Vaktlar o'tishi bilan odamlarning, mamlakatlarning extayoji kengaydi va chuqurlashdi bu bilan ilmiy— tadqiqot yo'nalishlari ham o'ziga xos yo'nalishlar kasb etib geografiya fani differenziastiyaga uchradi va o'zining strukturasi murakkablashtirdi. 18 — asrning ikkinchi yarmidagi sanoat revolyustiyasi geografiya fanlarn tarmoqlarini amaliy yo'nalishlariga boshqacha talab qo'ydi. Endilikda uning ob'ekti xali o'rganilmagan hududlarga nisbatan o'zi o'zlashtirilgan xududlarni xo'jalik faoliyatlarini tadqiq qilish asosiy masalaga aylanib bordi. Mana bularning xammasi geografiya fanlarini strukturasi va tadqiqot metodlarida kuchli o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

2. Tabiiy geografik tadqiqot uslublari o'quv kursining asosiy vazifasi bu — geografik tadqiqot ishlarini tarmoqli va kompleks turlarini, geografik qobiqning

komplekslik darajalarini, ya'ni komplekslar — tabiiy ishlab chiqarish, tabiiy xo'jalik tizimini ilmiy tadqiq qilish, hozirgi zamon axborot tizimi, geografik axborotlarning global, regional va tipologik darajalarini o'rgatishdan iborat.

3. Tabiiy geografik tadqiqot uslublari o'quv kursining asosiy mazmuni shundan iboratki,

—asosiy taksonomik birliklar,

—tabiiy geografik tadqiqotlarda qo'llaniladigan usul va uslublari,

— dalada daliliy ma'lumotlarni to'plash va ularni tartibga solish, tarmoqli tabiiy geografik tadqiqot ishlari,

—kompleks tabiiy geografik tadqiqot ishlari o'rganish, tadqiqot ishlari olib borish va u bilan bo'lgan ishlar tizimini o'rgatishdan iborat.

Nazorat savollari

1. Tabiiy geografik tadqiqot uslublari o'quv kursining maqsadi nimadan iborat?

2. O'quv kursining vazifalari nimadan iborat?

3. O'quv kursining mazmunida nimalar yoritilgan?

4. Hozirgi zamon tabiiy geografik tadqiqot uslublari.

5. Tabiiy geografik tadqiqot uslublari fanining asosiy mazmunini gapirib bering?

6. Dala sharoitida qanjay daliliy ma'lumotlar to'planadi?

7. Tarmoqli tabiiy geografik tadqiqotlar deganda nimani tushunasiz?

8. Majmualar tabiiy geografik tadqiqotlarning mohiyati xaqida pshirib bering?

9. Metodik asos nima?

10. Gsografiya fanlari tizimidagi tadqiqot usullarini sapa() (yuripg,

Bu mudi qatnash turlari bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

1. tabiiy geografik tadqiqot
2. Tabiiy geografik tadqiqot uslub va usullari
3. Metodologik asos
4. Maqsad, vazifa va mazmun
5. Differentsial
6. Geografiya fanlari strukturasi

MAVZU: GEOGRAFIYA FANLARI TIZIMI.

REJA:

1. Tabiiy geografiya
2. Iqtisodiy — ijtimoiy geografiya
3. Geografik bilimlarning tamoyillari.

XX asrning oxirgi o'quv nuqtasi yilliklariga kelib geografiya fanlari tizimida ko'plab ilmiy yo'nalishlar va tarmoqlar vujudga keldi, bu yo'nalish va tarmoqlarsiz ilmiy— tadqiqot ishlarini poyoni go'yoki sayozdek ko'rinishga boshladi.

Biz yuqoridagi ma'ruzada aytib o'tganimizdek. hozirgi kunga kelib geografiya o'zi o'zlashtirilgan xududlarda tabiatning o'zgartirish. tabiiy resurslardan intensiv foydalanish kabi masalalarni atroflicha tadqiq qilish bilan bir qatorda geografiya fanlarini strukturasi va metodlari xam kuchli o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bunga asosiy sabab atrof tabiiy muhitni aloxida komponentlarini chuqur tadqiqot qilish jarayonida vujudga kelgan nomutanosibliklarni oldini olish va ularga barxam berish borasida tabiiy geografiyada xam bu iqtisodiy — ijtimoiy geografiyada xam yondoshish va usullarni tarmoq mutaxassisliklarga ajratishga olib keldi. Jumladan tabiiy geografiyada juda ko'p aloxida ilmiy yo'nalishlar vujudga keldi. Ya'ni, geomorfologiya, iqlimshunoslik va undan tezlik bilan doimiy qor va muzliklarni o'rganuvchi glaciologiya (muzshunoslik), gidrologiya keyinchalik undan quruqlik gidrologiyasi va okeanologiyasi ajralib chiqdi. Bulardan tashqari

yana tabiiy geografiyada o'simliklarni tarqalishini o'rganuvchi biogeografiya. xayvonot olamini o'rganuvchi zoogeografiya, tuproqlarni tadqiq qiluvchi tuproqshunoslikni bir tarmori xisoblangan genetik tuproqshunoslik, geofizika, geokimyo, landshaftshunoslik, meliorativ geografiya, paleogeografiya, koinot geografiyasi, tabiiy resurslar geografiyasi, xaritashunoslik, geodeziya. qorshunoslik, geokologiya, monitoring tizimlari va boshqa ko'plab tarmoqlar va yo'nalishlar vujudga keldi. Bu tarmoq va yo'nalishlar tabiiy geografiya fanlari tizimini tashkil etib tabiat komponentlarini tadqiq qilishda ularni o'zgarishini, rivojlanishini, evolyustiyasini, genezisini, dinamikasini o'rganishda bir birini doimo to'ldirib kelmoqda.

Bu tarmoq fan • yo'nalishlarini rivojlanishi geografiya fanlari tizimini fundamental tadqiqotlarida o'ziga xos bir turkumni tashkil etadi. Tabiiy geografiya fanlari tizimida yana bir yirik yunalish va uzining tadkikot uslublari va metodologiyasi bilan aloxida urin tutadigan fan[^]garmoni bu iktisodiy — ijtimoiy geografiya yunalishidir. Ayniksa bu fan tarmogi endlikda tabiiy va ijtimoiy fanlar chegarasida joylashgan xolda konstruktiv geografiyani rivojlantirib borishida asosiy urinni egallamokda.

Jumladan iktisodiy — ijtimoiy geografiya xam ular urnida bir nechta tarmoklarga bulinib ketgan. Masalan, iktisodiy geografiya, ijtimoiy geografiya, siyosiy geografiya, fanlar geografiyasi, axoli geografiyasi demografiyasi bilan birga sanoat geografiyasi, kishlok xujaligi geografiyasi, shaxarlar geografiyasi, tabiiy resurslardan foydalanish geografiyasi, tarixiy geografiya, geografik tadkikotlar tarixi geografiyasi, xarbiy geografiya, tibbiyot geografiyasi, rekreastion geografiya, mamlakatlar geografiyasi va boshkalar.

Umuman tabiiy geografiya xamda iktisodiy — ijtimoiy geografiya fanlari tizimidagi barcha yunalishlar bir — birini doimo tuldirib tadkikot materiallaridan foydalanib kelishlari bilan bir katorda geografiya fanlariga yakin bulgan fanlarni ma'lumotlaridan xam atroflicha foydalaniladi. Bu yakin masalan. bulishi mumkin, geologiya, meteorologiya, biologiya,

ekologiya, matematika, kimyo, fizika, etnografiya, tarix, iktisod, statistika va boshkalar.

Kadim zamonlardan boshlab, geografiya fani turli xil kuchli qarshiliklarga uchrangani bilan bu fan uzining bir butunligini saklab kola bildi. Geografiya fanlari tizimining bir butunligini saklab kolinishida geografik bilimlarni asosini tashkil etuvchi uchta tamoyili asosiy urin egalladi. Jumladan, bu tamoyillar quyidagilardir:

1. Regionalizm

2. Ekologizm

3. Antropogenizm

1. Geografik urganish va tasvirlashda asosiy oboekt sifatida anik xudud maydonga chikadi. Tabiiy geografiyada regionalizm tamoyillarini rivojlanishida geografiyaning xaritashunoslik bilan uzviy alokasi asosiy rol uynagan. Xaritashunoslik uslubida joyning anik kurinishi va tasvirlanishi urganilayotgan regionni geografik tadkik kilinishida kuchli texnik vositalar yordamida ob'ektni xakikiy tavsifi aniklanadi va usha^ regionning geografik konuniyatlari kurib chikiladi. Endilikda amaliy geografiyada geoekologik muammolarning asosiy kismi rsgioial darajaga kutariladi. Buddan kelib chikadiki, tabiiy geografik tadkikotlarning yunalishini endi regional darajaga olib chikilishi kerak. "Global darajada fikr yuritib lokal darajada ish olib borish kerak". Vaxolangki, regional daraja global daraja bilan lokal darajani urta buyini xisoblanib juda chukur kompleks tadkikotlarni talab kiladi.

2. Ekologizm tamoyillari tabiiy geografiyada tabiiy zonalari va tabiiy landshaftlar xakidagi bililarni ishlab chik.ishda uz aksini topdi. Ma'lumki, bu tushunchalar tabiiy muxit komponentlarini moxiyatini uzaro alokalarini aniklash uchun belgilangan. Ya'ni iklimiyl sharoit, relef, tuprok, usimlik va xayvonot dunyosi. Bu tabiat komponentlari u yoki bu regionda albatta kaytariladi. Ekologizm tamoyilida tabiiy landshaft eng asosiy rolni uynaydi, bu atama geografiyaga biologiyadan kirib kelgan "ekotizim"

atamasi bilan juda yaqinlashadi.' Bu bilan tabiat komplekslaridagi energiya va modda almashinuvining asosini tashkil etuvchi zanjir — tabiiy landshaftlar — ekotizim vujudga keladi.

Xozirgi kunda ekotizimlar va tabiiy landshaftlar xakidagi ta'limot zamonaviy geografiya va biogeografiyada mavjud va juda kungildagidek rivojlanib bormokda. Bu ta'limot tabiiy geografiyaning tarmok darixisoblangan iklimshunoslik, gidrologiya, tuproklar geografiyasi, geobotanika, zoogeografiyalarning rivojlanishida rol uynab qolmasdan geografiyani biologiya fani bilan chukur alokasini xam taminlamooda.

3. Geografik tadkikotlarning keyingi rivojlanishida eng dolzarb bulgan xolatlardan biri bu antropogenizm tamoilini roli oshib borayotganligidir. Inson kadim zamonlardan buen tabiatga uning unurslariga kelmokda, XX asrning oxirgi usuv nuk'chasi yilliklariga kelib, uning ta'siri global darajaga kutarilib ketdi. Shularni xisobga olib geografik bilimlarning asosiy yunalishi endilikda kandaydir xali insonni oyogi etib bormagan ulkalarni tadqiq qilish emas, balki tabiiy muxitni saklash, ximoya kilish va uni uzgartirish extiyotkorlikni amalgam oshirish bilan boglik bulmokda. I.Nazorat savollari

1. Geografiya fanlari tizimi nimani tushunasiz?
2. Tabiiy tarmoklarini sanab bering?
3. Iqtisodiy — ijtimoiy geografiya tarmoklarini sanab bering?
4. Geografik bilimlar tamoyillarini sanab bering?
5. Spelologiya fani nimani urganadi?
6. Paleogeografiyani o'rganish ob'ekti nima?
7. Tabiiy geografiya fanini tarmoqlarini ayting?
8. Iqtisodiy geografiya fanining tarmoqlarini ayting ?

9.Oraliq fanlar tarmoqlarini sanab bering?

10. Demografiya, geodeziya, etnografiya yo'nalishlarini bir — biridan farqini aytib bering.

Bu mavzudan talaba bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

- 1.Geografiya fanlari tizimi
- 2.Iqtisodiy — ijtimoiy geografiya
- 3.Geografik bilimlarniig tamoyillari
- 4.Regionalizm
- 5.Ekologizm
- 6.Antropogenizm
- 7.Spelologiya
- 8.Paleogeografiya
- 9.Geodeziya
- 10.Demografiya. etnografiya

MAVZU: GEOGRAFIK TADQIQOT USULLARI VA USLUBLARI

REJA:

1. Tabiiy geografik tadqiqot
2. Dialektik uslub
3. Qiyoslash uslubi
4. Stasional va eksnedistion uslublar
5. Kartografik va aerokosmik
6. Matematik yoki modellashtirish usullari
7. Laboratoriya analitik uslub
8. Paleogeografik uslub
9. Rayonlashtirish uslubi
10. Tasvirlash va kompleks majmualari uslublar
11. Tabiiy geografiyadagi geofizik va geokimyoviy yo'nalishlar Boshqa fundamental va amaliy fanlar singari tabiiy

geografiyada xam juda ko'p xil tadqiqot ishlari uchun qo'llaniladigan usul va uslublar mavjud. Bu usul va uslublar yordamida tabiiy geografiyada oddiy voqea xodisalarning tub mohiyati ochib beriladi va shu bilan birga ularda vujudga kelgan xar xil muammolarni bartaraf qilish va ularni kelajakdagi xolatini bashorat qilishi masalalari aniqlanadi.

Falsafiy nuqatai nazardan tabiiy geografik tadqiqot usul va uslublari yordamida geografik xodisa va jarayonlarni anglash va namoyon qilishga erishiladi.

1. Fan hamisha biron tarzda hodisalarning aloqalarini ochib berishga intilib keldi. Lekin ilgari xech qachon ayrim xodisalarni aloqador bir butun xolda tadqiqot qilish fanda xozirgi vaqtdagidek o'rin tutgan emas. Hodisalar va jarayonlarni tizimlar sifatida, ya'ni elementlari va qismlari muayyan aloqadorlikda bo'lib, bularning o'zlari xam kengroq tizimlarning tomonlari va qismlaridan iborat bo'lgan yaxlit butunliklar sifatida taxlil qilish — xozirgi zamon fanining xarakterli xususiyatlaridan biridir.

Fanning vazifasi va maqsadi avvalo tabiat va jamiyatni xarakat va taraqqiyotning qonuniyatli jarayoni sifatida ob'ektiv qonunlar taqozosi bilan yuzaga keladigan va shu qonunlar yo'llab turgan jarayon sifatida tushunishdan iboratdir.

2. Tabiat to'risidagi uning taraqqiyoti to'risidagi eng mukammal xar tomonlama chuqur ta'limot bo'lgan dialektika tabiatning tub mohiyatini o'rganishda nazariy negiz sifatida maydonga chiqdi.

Tabiiy geografiyadagi tadqiqot uslublaridan biri bu dialektik uslub bo'lib, falsafiy nuqtai nazardan tabiatdagi barcha xodisa va jarayonlarni to'liq anglash uchun dialektik uslubdan foydalaniladi. Faqat dialektik uslub yordamida tadqiqotning mohiyati to'liq anglanadi.

3. Tabiiy geografiyadagi tadqiqotlar jarayonida qiyoslash uslubiga xam juda katta o'rin berilgan. Bu usul orqali xar xanday ikkita tabiiy geografik ob'ektni bir biriga qiyoslash yordamida tadqiqot ishlarining natijasini kuzatish mumkin. Masalan, Afrikadagi Saxroi Kabir cho'li bilan Osiyo qit'asidagi Taklamakon cho'li yoki Kalaxare cho'li bilan Qizilqum yoki Qoraqumni qiyoslab ular o'rtasidagi o'xshashlik xamda qarama qarshilikni bilib olish mumkin. Qiyoslash uslubida tadqiqotlarga kompleks yondoshish mumkin. Ya'ni o'rganilayotgan ob'ektdagi barcha uchraydigan tabiiy unsurlarni tizimla ravishda majmual qiyoslash va xulosa chiqarish mumkin.

4. Stasionar va ekspedistion uslublar: yaqin vaqtlargacha ilmiy — tadqiqot ishlarida ekspedistion uslubdan foydalanib kelingan va bundan xam keyin bu usul o'zining ilmiy — tadqiqotning mukammal qismi. siifatyda dala tadqiqotlarining gultoji bo'lib qolaveradi.

Ekspedistion uslubda barcha voqea va xodisalar bevosita o'rnida ko'rib chiqiladi, o'zimizga ma'lumki, tadqiq qilinayotgan xududdagi barcha ob'ekt va jarayonlarning bevosita o'rnida ko'rilishi mukammal natijalarni berishta kafolat beradi. Ya'ni ming marta eshitgan, o'qigandan ko'ra bir marta ko'rgan afzalroqdir degan naql aynan mana shu ekspedistion uslubga ta'alluqlidir.

Endilikda barcha shu kunlarga to'plangan ma'lumotlar asosida (xarita, rasm, aerosurat, yozma ma'lumotlar) stasionar uslubda xam tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlarda o'rganilayotgan ob'ekt va xodisalar bir joyda turib ma'lumot va manbalar asosida o'rganiladi.

5. Kartografik va aerokosmik uslublar. Ayniqsa tabiiy geografik, ekologik tadqiqotlarda xaritalarning o'ni juda kattadir.

Shuning uchun, N.N.Baranskiy bekorga: "geografiya xarita bilan boshlanib xarita bilan tugaydi" deb aytmagan.

Tabiiy geografik tadqiqotlarda o'rganilgan xududlardagi barcha voqea va xodisalar albatta xaritaga tushirilishi

shart. Ana shunda bu xududdagi tabiatning o'zgarishlarini darajalari qanday xolatda ekanligi vaqtida aniq xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

Aerokosmik uslublar anchagina yosh tarmoq hisoblanib u asosan xalq xo'jaligi asrlarning 70 — yillaridan boshlab ilmiy — tadqiqotlarda keng ko'lamda qo'llanila boshladi. Aerokosmik uslublarda erning sun'iy yo'ldoshlari, kosmik raketalar, samolyotlar va boshqa uchuvchi apparatlar yordamida olingan fotosuratlar deshifrovka qilinib, o'sha xududlar uchun chora tadbirlar ishlab chiqiladi. Hozirgi kunda bu usuldan xalq xo'jaligini barcha jabxalarida keng ko'lamda foydalaniladi.

b. Matematik yoki statistik modellashitirish usublari. Bu usullardan tabiiy geografik va iqtisodiy — ijtimoiy geografiyaning tarmoqlari tadqiqotlarida keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, geodeziya va xaritashunoslikda, sanoat, qishloq xo'jaligi axolishunoslik, gidrologiya, iqlimshunoslik va boshqa soxalarda bu tadqiqot uslublaridan atroflicha foydalanib kelinmoqda.

7. Laboratoriya analitik uslub. Bu uslub o'ziga xosligi bilan tadqiqot usublari ichida ajralib turadi desak mubolaa bo'lmaydi, . xurmatli talabalar. Laboratoriya analitik usulda tadqiqot ishlari olib borishning texnologiyasi shundan iboratki, bunda masalan, daladan olib kelingan namunalari (tuproq, suv, o'simlik, xayvonlar va bilan) laboratoriya sharoitida olib kelingan namunalarni analogiga qarab taxlil qilinadi va xulosa chiqariladi.

8. Paleogeografik uslub. Bu uslubda o'rganilayotgan xududni tarixiy taraqqiyoti dinamikasi, ma'lumotlar va manbalar asosida o'rganib chiqiladi. Ya'ni xududni qadimgi o'rni qanday ko'rinishga ega bo'lgani hozirgi ko'rinishi qanday bo'ldi, u erdagi tadrijiy o'zagrishlarning moxiyatini ochib berishga bu usulning roli juda kattadir.

9. Rayonlashtirish uslubi. Hududni atroflicha o'rganish va ma'lum bir xulosalar chiqarish uchun qismlarga olinadi va chuqur tadqiq natijalariga qarab ma'lum

taksonomik birliklarga bo'ysunadigan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, sanoat, q|x rayonlariga ajratiladi.

10. Tasvirlash va kompleks (majmual) uslublar. Bu usullarda o'rganilayotgan xuddagi barcha ob'ekt voqea va xodisalar atroflicha tasvirlanadi. Bunday tadqiqotlar odatda majmual ko'rinishda bo'ladi.

11. Tabiiy geografik geofiznk va geokimyoviy yo'nalishlar xam mavjudki, bu tadqiqotlarda moddalarning massa va energiya almashinuvi, moddalarning kimyoviy tarkiblari va boshqalar atroflicha ko'rib chiqiladi.

Umuman olganda tabiiy geografik tadqiqotlarda ko'llaniladigan tadqiqot uslublari o'zining moxiyati ob'ekt va jarayonlarini o'rganishda ma'lum bir xulosalar chiqarishga yoki chora tadbirlar tizimini ishlab chiqishga yordam beribgina qolmasdan, geografik fundamental yo'nalishlarini istiqbolli rivojlanishiga xam o'zining xissasini qo'shadi. Nazorat savollari

1.Tabiiy geografik tadqiqot uslublarini sanab bering

2. Dialektik uslub bilan qiyoslash uslubiy moxiyatini tushuntiring

3. Stastionllash va ekspedistion uslublarning bir — biridan farqi?

4. Laboratoriya analitik uslub bilan tasvirlash va majmual uslublarning bir biridan farqi nimada?

5.Paleogeografik uslubning o'ziga xos tomonlari nimada? .

6.Matematik va modellashtirish metodlarining farqini aytib bering?

7.Laboratoriya — analitik uslubda nimalar aniqlanadi?

8. Geofizik va geokimyoviy yo'nalishlar xaqida nima deysiz?

9. Paleogeografik metodning moxiyatini tushuntirib bering?

10. Rayonlashtirish, tasvirlash va kompleks metodlar orqali nimalar aniqlanadi?

Bu mavzudan talaba bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

1. Tadqiqot uslublari
2. Dialektika
3. Qiyoslash
4. Deshifrovka
5. Stasionar
6. Ekspeditsiya
7. Statistika
8. Kartografiya
9. Aerokoinot
10. Laboratoriya
11. Analitika
12. Paleogeografiya
13. Majmualilik
14. Geofizika
15. Geokimyo

8-MAVZU: GEOMORFOLOGIK TADQIQOT ISHLARI

REJA:

1. Rel'ef—geomorfologik tadqiqot ishlarini tekshirish ob'ekti,
2. Tabiiy va antropogen—jarayonlarni relefga ta'siri
3. Geomorfologik xaritalar tuzish.

Rel'ef xududi tabiatining muxim komponentidir. U shu joy tabiatining boshqa xamma komponentlariga, xaroratning shakllanishi va kdytadan taqsimlanishiga, yoin — sochinning tarqalishiga, tuproq — gurutning namlanish rejimiga, maxalliy shamollarning xarakteriga, er osti suv oqimiga va ular orqali tuproq, o'simlik qoplarning tarqalishiga to'xtovsiz va kuchli ta'sir etib turadi.

Ikkinchi tomondan rel'ef shu joydagi faoliyatiga ta'sir etib qolmasdan odamning u bilan xisoblashishiga majbur qiladi. Shuning uchun xam rel'efni

tasvirlaganda uning xamma ikr — chikirlarini x.isobga olib tadqiqot ishlarida to'liq tavsif etilishi kerak.

Geografik atlaslardagi devoriy gipsometrik kartalardan foydalanib, joyiing orografik tuzilishiga tasvir berishdan boshlash kerak, Bunda xudud, er yuzasi tuzilishisting umumiy ko'rinishi, gipsometrik yuzasidagi tafovutlar, eng baland va eng past nuqtalarining o'rni, ularniig mutlaq va nisbiy balanddiklari, er yuzasining tutilganligi, uning sabablari tushuntirilishi kerak.

Ayni shu joyda er yuzasining asosiy geomorfologik shakllarini xosil bo'lishida etakchi rol o'ynagan ichki va tashqi kuchlarning roli batafsil bayon etilganidan so'ng, xudud xaqida u qanday geomorfologik rayonga mansub ekanligini va kelib chiqishini aiiqlanadi. Shunday umumiy xususiyatlari belgilab olinganidan so'ng xudud rel'efiga birma bir xarakteristika berilib tadqiqot ishlari davomida bunga to'liq amal qilinadi. Agar tasvirlanayotgan xudud tekislik bo'lsa unda daryoning xozirgi zamon vodiylari, qadimgi o'zanlari daryolar oraliida ma'lum tomonga nishabligi bo'lgan tekisliklar, past tekisliklar bo'ladi. Eng avvalo tadqiqotlar jarayonida shular tavsiflanishi kerak. Tasvir tekisliklarning qaysi daryo oraliida joylashganligi, uning o'rtacha maksimal, mutloqiy balandligi qanday, eng baland va eng past nisbiy balandliklari qaerda joylashganligi, rel'efning qanday elementga mansub ekanligi, umumiy xolatiga e'tibor berishi kerak. Tekisliklarning yuzasi agar jarliklar, balkalar, do'ngliklar, qirralar va tepaliklar bilan band bo'lsa, - ularning eng xarakterlilarini tavsiflash foydadan xoli emas.

Hududning erozion titilganlik va xarakterini aniqlash xam aloxida axamiyatga ega. Xarakterli rel'ef shakllarini tadqiq qilganda tasvirlangan ularning tashqi tuzilishi, gorizont tomonlariga nisbatan turishi, u yoki bu morfologik elementining cho'zilganligi xaqidagi o'lchov ma'lumotlari ya'ni morfometriyasi: nisbiy balanligi, yonbairlarining nishabligi, ekspozistiyasi, xajmi, maydoni kabi miqdoriy ko'rsatkichlari albatta aniqlanishi kerak.

Goomorfologik tadqiqot ishlarida atlaslardagi geologik xaritalardan foydalanib

tadqiq etilayotgan xududning rel'ef

shakllarining geologik tuzilishini va joyning nisbiy yoshini aniqlab ketilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Hududdagi xar bir rel'ef shaklini shunday rejada tadqiq etilsa xamma rel'efning umumiy tavsifini va uning kelib chiqishini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiq etilayotgan xududda daryolar oshib o'tgan bo'lsa, ularning vodiysini - umumiy yo'nalishini, kengligini, chuqurligini, vodiyning shayushni, qayiri va qayir usti terrasalarini, ular daryoning xar ikkala soxilida aks etganmi yoki yo'qmi, qayirning va uning ustidagi terrasalarning balandligi, kengligi, yuzasining xarakteri, geologik qiyofasi tadqiqot ishida ifoda etilgan bo'lishi kerak. Asliy soxillar, qayir va terrasalar, eroziya, surilma, karst, eol yaratmalari bilan tuzilgan bo'lsa ularning sabablarini aniqlash va xosil bo'lgan shakllarni tasvirlashda geografik va geomorfologik manbalardan atroflicha foydalanish lozim.

Hozirgi zamon rel'efining shakllanishida katta rol o'ynovchi eroziya va denudastiya, surilma, karst. eol, suffozion — cho'kish, soliflyukastiya va boshqa

geomorfologik jarayonlar xaqida tadqiqotlar davomida xo'jalik nuqtai nazaridan xam baxo berish lozim. Ya'ni eroziya natijasida tuproqning tuzilishi, surilma va karst natijasida ekin ekiladigan maydonlarning ishdan chiqishi, soliflyukastiya tufayli tuproqning bevaqt sharoit bosishi kabi holatlar va boshqalar. Nixoyat shunday xo'jalik uchun zarar keltirayotgan jarayonlarga qarshi ko'riladigan chora — tadbirlar ishlab chishish masalalari ko'rib chiqilishi kerak.

Joyning rel'efiga berilgan tavsif kartografik, grafik chizmalar bilan to'ldirilishi lozim. Ayniqsa xisobot qismida atlas va adabiyotlardagi geomorfologik xaritalarni bir —biriga

taqqoslab, soddalashtirilgan nusxasini chizib xisobotga qo'shish mumkin. Yana xududning er yuzasi tuzilishining murakkablik darajasini xisobga olib tipik yo'nalish bir geomorfologik kesma tuzish shu joyga xos fotosuratlar ilova

qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Xisobotni qiymatini oshiradi.

Mana yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, rel'ef — geomorfologik tadqiqot ishlarining tekshirish ob'ekti sifatida maydonga chiqar ekan albatta tadqiqot ishlarida geomorfologik jarayonlar bilan boliq barcha ishlarni atroflicha ko'rib chiqishga to'ri keladi.

Geomorfologik tadqiqot ishlari olib borilganda albatta rel'efning morfologiyasi, morfometriyasi, genezisi, yoshi, aniqlanadi.

Rel'ef landshaftning etakchi komponenti bo'lishi bilan bir vaqtda, geologik rivojlanish bosqichlari, geologik strukturalar bilan xam uzviy boliqdir. Geomorfologik tadqiqotlarda bularga katga e'tibor berilishi kerak bo'ladi.

Tabiiy va antropogen omillarning rel'efga ta'siri: bu savolga javob berish uchun birinchidan rel'ef xosil qiluvchi omillarni bilib olishimiz darkor, shunday qilib rel'ef xosil qiluvchi omillarga —iqlim, oqar suvlar, shamol umuman erning ustki va erning ichki kuchlari kiradi.

Rel'ef tabiiy kompleksning asosiy komponenti sifatida maydonga chiqishi bilan bir vaqtda rel'efning boshqa komponentlari bilan uzviy aloqada bo'ladi va ularning bir —biri bilan aks ta'siri mavjud. Relref xususiyatlaridan kelib chiqilgan xolda terrasalar va landshaft ko'rinishlari vertikal zonalar xosil qilib tarqaladi. Yana geomorfologik tadqiqotlardan allyuvial rel'ef shakllariga xamda erozion akkumulyativ stikllarga xam katta eroziya berilishi lozim.

Geomorfologik tadqiqot ishlarida eng murakkab qilinnadigan ishlardan biri bu geomorfologik xaritalarni tuzishdir. Ayniqsa 20 —asrning oxiriga kelib er yuzida inson yashaydigan xududlarda xosil qilgan jinslar juda o'zgarib ketdi. Rel'efga antropogen ta'sir juda kuchaydi. Buni birinchi navbatda masalan adir zonalarini o'zlashtirish ko'plab gidroinshootlarni qurilishi, boshqa geomorfologik jarayonlarga insonlar tomonidan imkoniyatlar yaratilayotganligida ko'rishimiz mumkin. Lekin xar xil xodisalar ro'y bermasligi uchun

rel'ef ko'rinishlarini doimo muhofaza qilish lozim bo'ladi. Inson va tabiiy jarayonlar natijasida rel'efni o'zgarishi to jinslarini bir biri bilan aralashib ketishi mavzuli geomorfologik xaritalarni mukammal tuzilishiga to'sqinlik qiladi.

Geomorfologik xaritalar tadqiqot ishlarining maqsad va vazifalaridan kelib chiqilgani xolda xar xil turlarda bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligi masalalarini echishga bagashlangan gidroinshootlar qurish bilan boliq masalalarga baishlangan va boshqalar. Bu mavzuli geomorfologik xaritalarning masshtablari xam masalaning echimiga boliq xar xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun geomorfologik xaritalarning o'ziga xos masshtabi va shartdi belgilari mavjudki, xaritalar tuzishda ulardan foydalaniladi. Nazorat savollari

1. Rel'ef geomorfologik tadqiqot ishlarining asosi ekanligi
2. Rel'efning morfologiyasi va morfometriyasi
3. Dala sharoitida rel'ef ko'rinishlari o'rganilayotanda nimalarga e'tibor beriladi
4. Tabiiy va antropogen jarayonlarning rel'efga ta'siri
5. Geomorfologik xaritalar tuzish va ularning shartli belgilari
Tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar qanday qayta ishlanadi?
7. Geomorfologik xaritalar nimalarni aniqlashga yordam beradi?
8. Morfologiya, morfometriya, soliflyukstiya, akkumulyastiya, flyuvial rel'ef shakllari tushunchalariga izox bering?
9. Tabiiy va antropogen jarayonlarni rel'efga ta'siri bormi?
10. Shartli belgi, masshtab, terrasa gushunchalariga izoh

bering?

Bu mavzudai talaba bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

1. Geomorfologik
2. Morfografiya
3. Morfometriya
4. Soliflyukastiya
5. Eroziya
6. Akkumulyastiya
7. Alyuvial rel'ef shakllari
8. Masshtab
9. Shartli. belgi
10. Terrasa
11. Tabiat kompleksi
12. Tabiat komponentlari

9-MAVZU: METEREOLGIK VA MIKROIQLIMIY KUZATISHLAR

REJA:

O'quv tadqiqot ishlari jixatdan biror —bir tabiiy geografik o'lka. Provinstiya va juda kichik bo'lgan tabiiy geografik okrug yoki oblast xududini ISHROL qiladi. Shuning uchun bunday xudud doirasida faqat "iqlim" va "mezoiqlim" birligiga mos tushunchalar to'ri keladi. Bu hududda "mikroiqlim" tushunchasi o'z —o'zidan tushib qoladi. Shunday ekan talabaning vazifasi xududning turli qismlaridagi mikroiqlimiy tavofutlarni umumlashtirib mezoiqlim yoki iqlimga tavsif berishi yoki tadqiqot o'tkazishi earur.

Joyning mezoiqlimiy xususiyatlarini xarakterlovchi faktik ma'lumotlarni shu joydagi va qo'shni rayonlardagi metereologik stanstiyalar va qishloq xo'jalik muassasalari xamda maktablardagi geografik maydonchalarda ob — xavo ustida tizimli olib borilgan kuzatish natijalaridan olinadi.

Bu muassasalardagi ma'lumotlar metereologik stanstiyalarning "byulletenlarida" yoki "ejegodnik"larida umumlashltirib berilgan. Tadqiqotchi — talaba o'z

ob'ekti xududini mezoiqlimiy tavsiflashda ana shu manbalardan, iqlimiy sharoitlarni yoritishda esa geografik va iqlimiy adabiyotlardan foydalanish kerak.

Eng avvalo joyning o'ziga xos shamollar rejimi va bulutlilik, ularning fasllarga ko'ra takrorlanib turishi, xavo namligining sutka va yil davomidagi o'zgarishi, xavoning o'rtacha sutkalik, yillik, maksimal va minimal xarorati, foydali haroratni yillik YIRINDISI, yoin turlari va miqdori tadqiq qilinadi. Bunday meteorologik ma'lumotlarni taxlil qilib va umumlashtirib, tadqiqot ob'ektining birliklar yoki bir nechta bo'lagi uchun xos bo'lgan mikroiklim xarakterlanadi!

So'ngra xududning xamma qismi uchun xarakterli bo'lgan iqlimiy ma'lumotlar meteorologik stansiyalardan olinib o'rganib chiqiladi.

Bunda o'lka uchun xarakterli bo'lgan xavo oqimlarining shu joyning iqlimini xosil bo'lishidagi roli, yillik radiatsiya miqdori, o'rtacha haroratlar ularning joydan —joyga bogandagi tafovutlari, maksimum va minimum xaroratlar, foydali xarorat YIRINDISI, vegetatsiya davrining uzunligi, yillik yoin va uning fasllarga ko'ra taqsimlanishi, seryoin davrning -. qancha davom etishi kabi asosiy iqlimiy ko'rsatkichlarni taxlil qilish lozim.

O'lka iqlimining xarakterlashda asosiy agroiklimiy ko'rsatkichlar o'rtacha sutkalik xarorat—0.5.10 bo'lgan kunlar miqdori, shu kunlardagi haroratning yigindisi, vegetatsion qish % xisobida, xaqiqiy qishning uzunligi, musbat xaroratning YIRINDISI, iyul oyida soat 13 darajasigi nisbiy namlik va xokazolar to'liq tayyorlov bosqichida o'rganilib chiqiladi.

Yozma xisobot yoki tavsifnoma asosiy meteorologik va iqlimiy , ko'rsatkichlar jadvali bilan solishtirma diagrammalar, izotermalar va yoin sochinning taqsimlanishini xarakterlovchi karta — chizmalar bilan to'ldirilishi lozim.

Tadqiq qilinayotgan hududning mezoiqlim va iqlim xo'jalik nuqtai nazaridan etarli baxolanib xulosalanishi kerak.

Meteorologik va mikroiklimiy kuzatishlarda avvalam bor meteorologik

stanstiyadagi : jixozlar bilan asbob — uskunalar tanishish darkor. Bevosita dalada ekspedistiya sharoitida iqlimiy kuzatishlar uchun maxsus o'lchagich, namlikni o'lchash uchun maxsus asbob, yogin miqdorini aniqlash uchun maxsus idish, quyosh harakatini o'lchash uchun maxsus tayyor ma'lumotlarni yozib borish uchun albatta qalam, daftar, chizgich, o'chirgich va boshqalar kerak bo'ladi. Dala sharoitida tadqiqotlar o'tkazilayotgan vaqtda kuzatuv vaqtlari belgilanadigan bo'lishi kerak: 1, 7, 13, 19 soatlarda, bu vaqtda iqlimiy kuzatishlar bilan bir qatorda maxalliy vaqt davrida yoin miqdori, tuproq yuza qismining xarorati soat 7 va 19 da o'lchanadi. Shu paytlarda quyosh radiastiyasi, xavo bosimi va xarorati, shamolning tezligi va yo'nalishi, xavoning namligi va bulutlilik, tuproqning harorati va atmosferada sodir bo'layotgan xodisalar kuzatiladi.

Metereologik va mikroiklimiy kuzatishlar olib borish uchun vaqtinchalik maxsus metereologik maydonchani tashkil etish mumkim. Buning uchun kuzatish bilan baliq bo'lgan barcha asbob — uskunalar yaxshilab o'rnatilib ular quyosh nuri, yomir, shamol, ko'chki ta'siridan muxofaza qilish masalalarini echish va bu vaqtinchalik metereologik stanstiyada aniq o'lchov ishlarini tashkil etish lozim.

Ekspedistiya yoki dala sharoitida meteomaydonchada kuzatish ishlarining tartibi bilan olib borishni tashkil etish kerak bo'ladi, dastlab xavoning bulut bilan qoplanganlik darajasini va turlarini aniqlash kerak bo'ladi. So'ngra kuzatish ishlarini asbob — uskunalar yordamida bajarish kerak. Bunda xisob kitoblarning to'riligiga katta ahamiyat beriladi. Albatta mikroiklim ma'lumotlarini psixiometr, barograf, aneroid va boshqa asboblardan olingan ma'lumotlar asosida sinoptik xaritalar tuzish ishlarini amalga oshirish kerak bo'ladi. Sinoptik, iqlim xaritalarini mazmuni asosan quyidagicha bo'ladi, u xaritalarda: xavo massivlarining xarakati, o'sha joyidagi xaroratlar, bu xaritalardagi barcha voqea xamda xodisalar, ma'lumotlar o'sha joydagi bir kunlik yoki bir necha kunlik ob— xavosini aniqlab beradi va qisman bu ma'lumotlarga tayangan xolda iqlimni yoki ob — xavoni bashoratlash mumkin.

Iqlim va sinoptik xaritalarning shartli belgilari boshqa mavzuli xaritalarning shartli belgilaridan tubdan farq qiladi. Chunki iqlim va sinoptik darajasi harakat asosan er yuzasida yoki osmonda bo'lganligi uchun bu xaritalarda shartli belgilar ko'proq yo'nalishli chiziqlar, ranglar, raqamlar va boshqalar bilan beriladi.

Iqlimiy va sinoptik xaritalarni taxlil qilish natijasida iqlim va ob — xavo bilan boliq ko'plab ma'lumotlarni bilib olish va unga qarab harakat qilish mumkin. Yana bu xaritalarning tahlili ayniqsa qishloq xo'jaligi, chorvachilik, sanoatning ba'zi bir tarmoqlari, transport-uchun juda katga falokatlarni oldini olish ma'lumotlarini beradi va boshqalar.

Metereologik va mikroiklimiy kuzatishlarda albatta yana maxsus metereologik luatlardan xam foydalaniladi. Masalan, bu luatlarda bulutlarning nomlari, turlari, havo massalarining turlari, xarorat va bosim bilan borliq ma'lumotlar va boshqalar bo'ladi.

Mikroiqlimiy kuzatishlar jarayonida maxalliy ob — xavoni bilish uchun o'sha erda yashaydigan keksa kishilardan ham iqlimiy ma'lumotlarni olish mumkin. Iqlimning davriy o'zgarishlari bilan boliq ma'lumotlarni keksa kishilardan bshshb o'n yilliklar, o'n besh yilliklar va yigirma yillik oldingi iqlimni keyingi o'n yilliklar iqlimi bilan taqqoslab o'ziga xos bir ma'lumotlarni olish mumkin.

Umuman metereologik va mikroiklim kuzatishlari anchagina murakkab jarayonlarni o'z ichiga olib metereologik kuzatish olib borish uchun maxsus tayyorgarliklarni talab qiladi. Bunda bir necha xil o'lchov asboblarini va bu asboblar ko'rsatgan ma'lumotlarni jadvallar yordamida qayta ishlash xamda to'liq xatosiz tahlil qilishni o'rganishga to'ri keladi. Shuning uchun metereologik stanstiyalarda va boshqa ob —havoni kuzatish markazlarida maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar doimiy ish olib boradilar. Metereologik tadqiqotlar boshqa mavzuli tadqiqotlardan farq qilib ma'lum belgilangan vaqtda kuzatuv ishlarini amalga oshirish zarur bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Mezoiklim va mikroiklimni tavsifi nimadan iborat?
2. Metereologik stanstiyadagi o'lchov vaqtlarini. Aytib bering.
3. Metereologik stanstiyadagi o'lchov asbob —uskunalarini sanab bering?
4. Vaqtinchalik maxsus metereologik maydonchalardagi ishlarni tashkil qilishni aytib bering?
5. Iqlim va sinoptik xaritalar qanday bo'ladi?
6. Ishlim va sinoptik xaritalarni shartli beltilarini aytib bering?
7. Metereologik maydonchani xajmi dala sharoitida qancha bo'lishi kerak?
8. Iqlim va sinoptik xaritalarni qanday qiladi?
9. Maxalliy ob —xavo deganda nimani tushunasiz?
10. Metostanstiyada qanday asbob va uskunalar bo'ladi?

Bu mavzudan talaba bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

1. Mezoiklim
2. Mikroiklim
3. Meteostanstiya
4. Sinoptik ma'lumotlar
5. Metereologik maydoncha
6. Quyosh radiatsiyasi
7. Haroratlar yigandisi
8. Maxalliy vaqt
9. Psixometr
10. Barograf
11. Aneroid
12. Anemometr

MAVZU: GIDROLOGIK TADQIQOT ISHLARI

REJA:

1. Er usti va er osti suvlarini o'rganish
2. Hidrologik tadqiqot ishlariing ikkinchi bosqichi
3. Er usti va er osti suvlaridan namunalar olish
4. Daryolarning to'yinishiga ko'ra turlari
5. Hidrografik xaritalar

O'zimizga ma'lumki, xurmatli talabalar suv bu tabiatning juda xam nodir unsuri x.isoblanadi. Suvsiz xayotning bo'lishi mumkin emas!

Er usti suv manbalari asosan iqlimning maxsuloti bo'lganligi sababli, bu er namlanishiga ko'ra qanday tipda ekanligini yana bir eslatib o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Hidrologik tadqiqot ishlarida gidrografik tarmoqlarga daryolar, ko'llar. sun'iy suv xavzalari, botqoqliklarga umumiy tavsifnoma beriladi. Suv manbalarining xudud tabiatdagi roli ko'rsatib o'tiladi.

Katta va kichik daryolari, qaerdan va qanday boshlanadi. Yuqori oqimining xarakteri. Oqimning yo'nalishi va joyning geologik tuzilishi xamda rel'efiga boliqgi, daryo tubining qalinligi, daryo vodiylarining xolati, chukurligi albata ko'rib chiqilishi lozim.

I.I. Babushkinning " kompleks aa polevaya praktika po fizicheskoy geografii" degan qo'llanmasida suv ob'ektlarini tavsiflashi quyidagi usulini tavsiya etadi.

1. Daryoning nomi, uning oqimining yo'nalishi, irmoqlari qanday irmoq?
2. Agar daryo o'rganilayotgan xududdan boshlansa, manbai (buloqmi, botqoqmi, ko'lmi)
3. Daryo qaysi yirikroq daryo xavzasiga qaraydi?
4. O'zanning xarakteri: egriligi, tarmoqlarga bo'linishi, orollari, sayozliklari, plyaj bormi, ular doimiymi yoki almashinib turadimi? o'zanning kengligi, daryo tubi va soxillaridagi gruntning xarakteri.
5. Soxilda yangi yuvilgan, surilgan uchastkalar bormi? Ular o'zining qanday masofasida?

6. Daryoning soxil yoki o'rtasidagi chuqurligi
7. Daryo oqimining o'rtacha tezligi ?
8. Kam suvlik va to'la suvlik davri qachon ?
9. Ko'p va kam suvlik davrida daryo suvining loyqaligi
10. Daryo to'yinadigan manbalar qanday tip ustuntshk qiladi ?
11. Daryolarning rejimi, daryo suv yuzasining fasllarga ko'ra o'zgarishi, muzlab yotishi va muzdan xoli davri to'la va kam suvlik davri.
12. Daryolardan kemachilikda, yooch oqizishda, elektenergiya olishda , tegirmon, suv ombori sifatida, suv sporti va boshqa xo'jalik extiyojlaridan foydalanish.

Bu yuqoridagi usullardan 1.2.3.4 punktlarga talabalar atlasdagi va boshqa kartografik asarlardan qaysi o'zi o'lchash yo'li bilan ma'lumot topishi mumkin.

Qolgan bo'limlarni xarakterlashda faqat geografik adabiyotlar, gidrologik ejegodniklar va bevosita dala sharoitida to'plangan ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Tadqiqotning bu bo'limlari daryolarning suv rejimlarini xarakterlovchi grafik, diagramma va karta — chizmalar bilan to'ldirish ular bilan ishlash talab qilinadi.

Agar tadqiqot qilinayotgan xududda ko'llar bo'lsa, ko'lniig eng asosiy tabiiy xususiyatini xarakterlash kifoya, ya'ni ko'lning kengligi, uzunligi, suv yuzasining eng baland va eng past bo'lgan vaqtdagi xolati, o'rtacha chuqurligi, eng chuqur joyi, suvniig sho'rliigi, tiniqligi, yoz va qish oylaridagi harorat, xayvonot dunyosi, ko'lning xo'jalikdagi o'rni. Botqoqliklarning maydoni (agar botqoqlik bo'lsa) tipi, o'simliklari va ulardan foydalanishni bayon etish etarli bo'ladi.

Er osti tabiiy jarayonlarda ishtirok etib surilma, karst, suffoziya jarayonlariga sababchi bo'ladi. Shu bilan birga daryolar va ko'llarning to'yinishida .asosiy manbalardan xisoblanadi. Aholi va xo'jalik extiyojlarini suv

bilan ta'minlaydi, tuproq va o'simlik qoplaminig xayotida katta ahamiyatga ega.

Adabiyot manbalari asosida tadqiqotga tayyorgarlik davrida talaba eng avvalo xududning gidrologik sharoitlarini to'liq xarakterlashi kerak. So'ng suvli qatlamlar va ularniig xolati, qatlamlarni tashkil etuvchi to jinslarining litologik tarkibi, suv osti qatlami pa suv o'tkazuvchi qatlamning yoshi, suv ayirichlar va ular yonbairlarning nishabligi, suv yiuvcchi gorizontlar, daryolar, jarlikar, balkalar shaxobchalari bilan drenaj qilinganmi, bu suvli qatlamlarni daryo, ko'l va botqoqliklarni suv bilap ta'minlashda ishtiroki qanday kabi masalalarga eroziyaini qaratishi lozim bo'ladi.

Joy gidrogeologik xususiyatlaridan biri rel'ef elementlari, ya'ni qaerlarda bosim ostida va qaerlarda suzib chiqishini, turli gorizontlardagi suvning sifati mukammal yoritishni talab qilinadi. Tadqiq qilinayotgan o'lkaning qaeridan qanday chuqurlikda uduq va artezan quduqlari qa^zilgan, ularning o'rtacha suv sarfi va yil fasllari bo'yicha uzgarishini tadqiq qilish, er osti suvidan xalq xo'jaligida tejamli va unumli foydalanilyaptimi yo'qmi ko'rsatish lozim bo'ladi.

Gidrologik rayonlarning aralashgan birini o'ziga xos xususiyatlari va artezan xavzalarini xarakterlash bilan bu tadqiqot ishlariga xulosa yasash mumkin.

Mana ko'rinib turibdiki, talaba gidrologik tadqiqotlar olib borish jarayonida er osti suvlarini xarakterlashda ko'proq adabiyot manbalariga asoslanishi chunki u kuzatish va tekshirish yo'li bilan ma'lumot to'play olmasligi mumkin.

Gidrologik tadqiqotlar ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchisida daryo, irmoq, ko'l, buloqlarning morfologik tuzilishi atroflicha tadqiq qilinadi. Ikkinchi bosqichda esa gidrometrik ishlarni bajarishi lozim. Gidropostlarda suv sarfi, suv oqimi tezligi, suv siimi kabi o'lchov ishlarini olib borishi kerak bo'ladi.

Bunday tadqiqotlarni olib borish uchun gidrologik asbob va uskunalar

kerak, ya'ni masalan gidrologik vertushka. Tiniqlikni aniqlaydigan disk suvini loqayligini aniqlaydigan shkala va boshqalar.

Gidrologik tadqiqot ishlaridan yana biri bu suv manbalaridan namunalari olish va laboratoriya sharoitida ularni tekshirishdir. Bulardan tashqari suvning fizik va kimyoviy xususiyatlarini aniqlash ishlarini olib borishi kerak.

Gidrologik tadqiqotda daryolarning to'yinishiga ko'ra turlariga xam katta e'tibor berilib o'rganilayotgan daryolar to'yinishiga ko'ra klassifikatsiya qilinadi. Ya'ni daryo qor — muzlik — qor, qor, yomyr, yomshir — qor, er osti— yomir yoki aralash va boshqa manba suvlaridan to'yinadigan daryolarga ajratiladi.

Tadqiqotlar jarayonida keksa kishilardan suv toshqinlari, muzlash xolati, muzning erishi payti, kam suvli yillar haqidagi ma'lumotlar olinsa foydadan xoli bo'lmaydi,

Albatga xaritalar boshqa mavzuli xaritalardan shartli belgilari bilan farq qiladi. Gidrologik shartli belgilarni sizlar topografiya fani bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarda albatta ko'rgansiz. Gidrologik xaritalarning shartli belgilari asosan ranglar berish, oqim yo'nalishlari ko'rsatkichlari bilan suv sarfi, suv tezligi, suvning chuqurligini gidro nshootlarning kengligi, kemalar qatnaydigan qismi va boshqalar mukammallikda ko'rsatiladi. Bulardan tashqari buloqlar, quduqlar, suv kechuvlar (brod) va boshqalar xam ayniqsa topografik xaritalarda doimo qo'llaniladigan umuman gidrologik xaritalarning mazmuni barcha suvliklar haqida mukammal ma'lumot beradi. Shuning uchun ahamiyati xalq xo'jaligida muxim rol o'ynaydi.

Nazorat savollari

1. Er usti suvlariga nimalar kiradi?
2. Er osti suvlariga nimalar kiradi?
3. Gidrologik tadqiqot ishlarining bosqichlarini aytib bering?
4. Daryolarning to'yinishiga ko'ra turlarini sanab bering?

5. Hidrografik xaritalarda nimalar tasvirlanadi?
6. Suvlarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini aytib bering?
7. Er osti suvlarini tabiiy jarayonlarda ishtirok etishi natijasida nimalar vujudga keladi?
8. Hidrologik tadqiqotlarda nima uchun suvlardan namunalar olinadi?
9. Hidrologik xaritalarning shartli belgilari boshqa shartli belgilardan nimasi bilan farq qiladi?
10. Suvlarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini aytib bering. Bu mavzudan talaba bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

1. Hidrografiya
2. Hidrometriya
3. Hidrogeologiya
4. Er osti suvlari
5. Er usti suvlari
6. To'yinish manbalari
7. Hidrologik tadqiqotlarning ikki bosqichi
8. Suv namunalari
9. Hidrologik vertushka
10. Suv toshqinlari
11. Suvning fizik xususiyatlari
12. Suvlarning kimyoviy xususiyatlari

11-MAVZU: TUPROQ QOPLAMINI TADQIQ

QILISH

REJA:

1. Tuproq qoplamini xarakterlash (tavsiflash)
2. Geografik landshaftni (majmuani) shakllanishida tuproqning ahamiyati.

3. Tuproq qoplamini tadqiq qilish.

Tuproq qoplamini tadqiq qilishda o'rganilayotgan xududning ovak ona jinslari, mezoiqlimiy, gidrologik, gidrogeologik sharoitlariga tuproq xosil qiladigan omillar sifatida baxo berilishi kerak. Shu kompleks omillari ta'sirida vujudga kelgan zonal tuproqning, aynan shu joyga xos xususiyatlarini ochib berish, so'ng u eki bu tuproq xosil qiluvchi omilning ustunlik qilish orqasida xosil bo'lgan tuproq tiplarining geografik tarqalishini tasvirlashga o'tish lozim. Har bir tuproq tipi mutlaqo o'ziga xos sharoitda xosil bo'ladi, shuning uchun u gorizontning qalinligi, u yoki bu gorizontning yaxshi yoki xira ifodalanganligi, rangi, strukturasi, namligi va chirindiga boy yoki kambaalligi kabi belgilari bilan boshqa tuproq tiplaridan ajralib turadi.

Joydan joyga borgan sari xarakterlanayotgan o'lkaning rel'efi o'simlik qoplamida va tuproq xosil qiluvchn jinslarda yuz bergan barcha o'zgarishlar tuproq qoplamiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tuproq qoplamini tadqiq qilish uchun tanlangan xududlar

esa maydon jixatidan katga va o'ziga xos kompleks sharoitlari bo'lgan qator uchastkalarini o'z ichiga oladi. Bunday xilma —xil sharoitlarda xilma xil tuproqlarning tarqalishi tabiiydir. Masalan, o'lka mikrorel'efi yassi pasttekislik bor, unda er osti suvlari

yuzaga chiqib turadi. Shu tufayli tuproq — grunt o'ta namlangan, sho'rlanish xodisasi bo'lib turadi, ba'zan botqoqlashish darajasiga borib qoladi. Namsevar o'simlik o'sadi, ikkinchi uchastka balandroq tekislik, nishabligi bor, shuning uchun er osti suvi chuqurda yotadi. Tuproq — guruntning namlanishi etarli emas. Issiq faslda esa namlik mutlaqo etarli bo'lmaydi, o'simliklari kserofitlashgan, uchinchi uchastka tepalik yoki kir, uning tepasi bir yoki bir necha tomonga nishab, namlik uzoq saqlanmaydi, yoin —sochin davrida nuragan jinslarni yuvib olib ketib turiladi, o'simliklari o'ziga xos, turtinchi uchastka tepalikni turli ekspozitsiyasidagi yombarglar, quyosh nurining tushishida, nam xavo yo'liga ro'para va teskari turishida, yoinning yuza oqimi xolida oqib chiqib ketishida va tuproq guruntning namlanishida,

nixoyat o'simlik qoplamida tafovutlar ko'zga tashlanadi.

Ana shunday sharoitlarda mos tuproq tiplari vujudga kelishini ilmiy adabiyotlar, kartografik ma'lumotlar va boshqa manbalardan bilib olib so'ngra tuproq qoplamini tadqiq qilishga o'tish kerak.

Tuproq qoplamini tadqiq qilishda xar bir tuproqni tavsiflash unga morfologik,. jihatdap to'liq ta'rif berish, dexqonchilikning qaysi soxasi uchun yaroqli ekanligini asoslab berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xech bo'lmaganda tadqiq qilinayotgan xuddudda tarqalgan zonal tuproqning asosiy tiplarini geografik tarqalishini tasvirlaydigan sxematik tuproq xaritasini tadqiqot xisobotiga ilova qilinsa foydadan xoli bo'lmaydi.

Geografik kompleksniig shakllanishida tuproqning axamiyati juda xam kattadir. Shuning uchun xam tuproq xaqida gapiralganda albatta tuproq landshaftining oynasi, noz— ne'matlar manbai deyiladi. Dala sharoitida tuproq qoplamini tadqiq etish jarayonida foydalaniladigan asosiy asbob — uskunalar quyidagilardir: lopatka, tuproq PICHORI, tuproq burgusi, namuna uchun xalta va qogozlar, yorliqlar, monolitlar uchun yashiklar, ip, ruletka, yima metr, dala laboratoriyasi, 10 % qotishmali tuz kislotasi, Adrionov kompassi, aneroid va boshqalar.

Tuproq qoplamini tadqiq qilishda eng asosiy ishlardan biri bu tuproq kesmalarini qilishdir. Tuproq kesmalarini geologik ochiqliklarda xam shurflar yordamida xam tuzish mumkin. Shurfni qazish tartib — qoidalari quyidagicha:

1. Tuproq tadqiq qilinadigan joy tanlanadi

2. U er lopatka bilan kavlanadi

3. Ma'lum sm dan so'ng undan namuna yoki monolit olinadi.

4. Kerakli gorizontlardan namunalar olib bo'linganidan so'ng. shurf qazilgan chuqurdan yuqoridan chuqurga tomon gorizontlarni joylashishi, tuproqning fizik va kimyoviy tarkiblari tartib bilan yozib chiqiladi.

5. Tuproq kesmasini yozishda maxsus savolnomalardan foydalanish mumkin.

Tuproqning mexank tarkibini dalada aniqlash uslubi: buning uchun quruq tuproq aralashmalar borligi bilinadi va boshqalar, Asosiy tuproq gorizontlari A—chirindi to'plangan qismi, V —chirindi osti qismi. S—tuproqning ona jinsi. Bu tuproqlar gorizontlari bir — biridan rangi, zichligi, namligi, yot jinslarning uchrashi va boshqalar bilan farqlanadi.

Tuproqning meliorativ xolati o'ziga xos bo'lib, tadqiqot natijalaridan kelib chiqilib, u tuproqlarga qanday ishlov berilishi aniqlanadi. Umuman tuproq qoplami tadqiq qilishda tadqiqotning natijasi sifatida tuproq xaritasi chshziladi. Tadqiqot qilingan rayonning tuproq kesmalari ishlanadi va Bularning barchasi shartli belgilar bilan ifodalanadi. Tuproq xaritalarining mazmuni bu tadqiq qilingan xududning tuproq qoplami meliorativ xolatini yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

Shurfnin rasmi	Gorizo indeksi	Gorizo chuqurl va qalingli i, sm	Gorizont yozish: namligi, rangi, tarkibi, struktura, qo'shilishi, yaratilmalar, gorizontga o'tish qaynash chuqurligi, er osti paydo bo'lish o'rnatilgan suv botqoqlashish sho'rlanish va ko'rinishlari.	Namuna olingan chuqurlik da 50— 95-100 145-150 195-200 245-250 295-300
		100 sm		
		200 sm		
		300 sm		

Nazorat savollari

1. Tuproq qoplami xarakterini aytib bering ?
2. Tuproqning axamiyatini so'zlab bering ?
3. Tuproq nima uchun tadqiq qilinadi ?

4. Tuproq kesmasi qanday chiziladi ?
5. Asosiy tuproq gorizontlarini sanab bering?
6. Tuproqning meliorativ xolati deganda nimani tushunasiz ?
7. Tuproqning mexanikaviy tarkibi dala sharoitida qanday aniqlanadi?
8. Tuproqning meliorativ xolati deganda nimani tuptunasiz ?
9. Tuproq qoplami deganda nimaga tushunasiz?
10. Asosiy tuproq gorizontlarini sanab bering?

Bu mavzudan talaba bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

1. Ona jins
2. Zonal tuproq tiplari
3. Mikrorel'ef
4. Yassi pasttekislik
5. Balandroq tekislik tushunchasi
6. Nuragan jinslar
7. Tuproqning morfologik jixati
8. Tuproq burrusi
9. Monolit
10. Tuproq kesmasi
11. Shurf
12. Meliorativ xolat

MAVZU: O'SIMLIK VA HAYVONOT OLAMINI O'RGANISH

REJA:

1. O'simliklar dunyosini xarakterlash
2. Hayvonot dunyosini xarakterlash
3. Dala sharoitida o'simliklarni o'rganish
4. Dala sharoitida xayvon turlarini o'rganish

1. O'simliklar dunyosini o'rganysh. Talaba o'simliklar dunyosini o'rganishga kirishishdan oldin tadqiqot qilinishi mumkin bo'lgan xududni o'simlik qoplamini tavsiflovchi geografik, geobotanik ilmiy adabiyotlarni va atlas va xaritalarini o'rganib, zaruriy ma'lumotlarni belgilab olishi lozim, bunday qilish xudud o'simlik qoplami haqida dastlabki tasavvurlarni beradi.

O'zi yashayotgan o'lkadan tashqaridagi tabiiy geografik rayonlarni tanlagan bo'lsa, hech shubhasiz tadqiqot ishlari ilmiy adabiyot va atlas, xaritalarni o'rganmasdan turib amalga

oshirib bo'lmaydi. Umuman o'z o'lkasining xududida tadqiqot ishlari olib borgan vaqtda xam o'zining kuzatishi va tekshirish jarayonida to'plagan ma'lumotlar bilan adabiyot va xarita materiallari qo'shib olib boriladi. Shuningdek talaba o'simliklar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish jarayonida quyi kurslarda yozilgan kurs ishlari yoki nazorat ishlariga asoslanishi kerak.

Dastlab, u yoki bu zonaning bir qismi bo'lgan tadqiqot ob'ektiga umumiy geobotanik tavsifnoma beriladi. Bu tavsifnomada xududning o'simlik formastiyasida aks etuvchi o'simliklarning xo'jalik faoliyati tufayli tabiiy o'simlikdar qoplami qanchalar o'zgarib ketganligiga e'giborni jalb qilmoq kerak.

Talaba o'simliklarni tadqiq qilish jarayonida xududda tabiiy o'simliklarning tarqalish qonuniyatlarini o'rganish va tasvirlashga katta ahamiyat berishi lozim. O'simlik qoplamini tasvirlash uchun zarur bo'lgan materiallarni talaba o'zi o'tkazgan geobotanik tekshirishlardan oladi. I.N.Babushkinning "Kompleksnaya polevaya praktika po fizicheskoy geografii" degan qo'llanmasida o'simlik qoplamini tadqiq qilish va o'rganishning

quyidagi sxemasi taklif etiladi:

1. Tadqiq qilinayotgan uchastkani geografik o'rni, maydoni
2. Yuzadagi to jinslarining litotogik tarkibini ko'rsatilganligi xolda joyning rel'efini tasviri.
3. Mikrorel'ef xususiyatlari
4. Namlanish sharoitlari
5. O'simlik qoplami umumiy xolati
6. Tuproq xolatining tavsifi
7. O'simlik qoplami yarusligi
8. O'simlik turlarini nisbatan ko'rsatgan xolda yaruslar bo'yicha tasvir berish va boshqalar.

O'rmon o'simliklariga ta'rif berganda: o'rmon tipi va daraxt turlariga yosh daraxtlarning borligiga, o'rmon osti butalarining borligiga, o't—xashak qoplami va uning tarkibiga, daraxtlarning uzunligi va tanasining diametriga ahamiyat berish kerak.

O't—xashakli o'tloq formastiyasini zarur.

quyidagilarni qayd qilish zarur: o'tloqning tipi, o't — xashaklarning balandligi, tuproqning o'simlik bilan darajasi, qo'llanganlik o'simliklarning turlari. O'simlik tiplarining hammasi qancha fitomassa berishi, ularning xo'jalikdagi ahamiyati, ular orasida dorivor va mevali o'simliklar aloxida qayd etilinishi, zaxirasi aniqlanishi

xam ahamiyatlidir. Tadqiqot ishi o'simlik tiplarini tavsiflovchi sxematik geobotanik kartani chizish bilan yakunlanadi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari xurmatli talabalar, o'simlik qoplami o'rganishda yana o'simlik qoplami barcha tabiat komponentlarining indikator ekanligiga e'tibor berilishi lozim. Dala sharoitida o'simliklarni o'rganish paytida zarur asbob —uskunalardan foydalanish kerak bo'ladi. Tadqiqot jarayonida o'simliklarni rivojlanish bosqichlari: o'sib chiqish paytida, rivojlanish xususiyati, gullash davri, xosilga kirish jarayoni. Uyquga ketish davrlarini, muayyan joyda o'simliklarning eng ko'p tarqalgan turini, yarus bo'ilib o'sishini,

qoplanganlik darajasini, xosildorligini va qandan maqsadda ishlatilishini aniq bilib olish foydadan xoli bo'lmaydi.

O'stmliklarni tadqiq qilish jarayonida uning geografiyasiga xam e'tibor berilib: namlikka, qiyalikka, ekspozitsiyaga, nisbiy va mutlaq balandliklarga ko'ra xisobga otshnadi.

2. Hayvonot dunyosini o'rganish: bunda tadqiqotchi eng asosiy e'tibor fauna kompleksini tavsiflashga qaratishi, geografik va zoogeografik ilmiy adabiyotlar xamda xaritashunoslik ma'lumotlariga suyanib shu xududning sut emizuvchilari, quruqlik va suvda yashovchilar, qushlar va xasharotlari xaqida mukammal ma'lumot to'plashi kerak. Ularning geografik tarqalishini tushuntirish uchun joyning rel'efi, iqlimi, tuproq, o'simlik qoplami komplekslari birgalikda xosil qilgan ekologik sharoitlarning xilma — xilligini tasvirlab o'tilishi zarur. Hudud landshaftida ayniqsa xayvonot dunyosi uchun zarur o'simlik qoplamidir, shuning uchun xam mahalliy xayvonlarning tarqalishi o'simliklarning oz — ko'pligiga va tipiga boqliq.

O'simlik va xayvonlar tabiatning eng o'zgaruvchan komponenti xisoblanadi. Bu masalan, xayvonot (o'simlik) dunyosi to'grisida ma'lumot to'plash, tadqiqot ishlari, maqsad va vazifalarida albatta aks etishi kerak. Tadqiqotchi landshaft Tipida, urochishchada, fastiyada, qanday xayvonlar turlari uchrashini bilishi zarur.

Dala sharoitida xayvon turlarini o'rganishda maxalliy millat vakillaridan savol —javob usulida ma'lumot to'plashning axamiyati juda kattadir.

Umuman tadqiqotchi o'rganilayotgan xududdagi barcha xayvonot dunyosi turlarining migrastiyasi, ko'payish xususiyatlari, umr ko'rishi, xayot tarzi, muayyan ekologik sharoitda yashaydigan xar . bir xayvonlar turining xususiyatlari, ularning tabiatdagi va inson xayotidagi roli va umuman xayvonlar ekologiyasi, qo'riqxonalar xamda ularning axamiyati xaqida mukammal ma'lumotlar to'plashi lozim va ular ilmiy xisobotda aks etishi kerak.

Nazorat savollari

1.O'simlik qoplami qanday o'rganiladi ?

2. Hayvonot dunyosi qanday o'rganiladi ? -
3. Hayvonlar migrastiyasi nima? ,
4. O'simliklarning yashash sharoiti qanday bo'ladi ?
5. O'simlik va xayvonot olamini tavsiflashning ahamiyati nimada?
6. O't —hashakli o'tloq formastiyasi qanday tavsiflanadi ?
7. O'simlik qoplami tabiat kompleksining indikatori bo'lishi mumkinmi?
8. Fauna kompleksi qanday-tavsiflanadi ?
9. Hayvonot olami tabiatda eng o'zgaruvchan komponenti deyilishiga asos bormi ?
10. Hayvonlar migrastiyasi deganda nimani tushunasiz? -

Bu mavzudan talaba bilishi lozim bo'lgan tayanch iboralar va tushunchalar:

1. O'simliklar dunyosi
2. Hayvonot dunyosi
3. O'simliklarning zonal tarqalishi
4. Mikrorel'ef
5. Migrastiya
6. Hayvon turlari
7. O'simlik tiplari
8. Landshaft
9. Urochishcha
10. Fastiya

Mavzu Aholini geografik o'rganish.

Reja:

1. Aholi geografiyasini o'rganish metodlari.

2. Aholi geografiyasini o'rgangan olmlar.

Iqtisodiy va sotsial yoki umumjaxon an'analariga mos ravishda ijtimoiy geografiya fani tizimida aholi nihoyatda muhim va markaziy o'rinni egallaydi. U, ba'zi olimlar ta'бири bilan aytganda, ushbu fanning ichki o'zak bo'lagi, qariyb hamma sifati sifatida xizmat qiladi. Shu bois iqtisodiy va sotsial geografiyada aholiga e'tibor juda kuchli bo'lgan. Hatto jahon geografiyasida ham vaziyat deyarli shunday: ma'lumotlarga qaraganda, geografiyada bajarilayotgan jamiki ilmiy ishlarning borigidan ko'progi aynan ana shu aholi muammolariga to'g'ri keladi.

Aholi — ma'lum bir hududda joylashgan kishilar birligi, jamoasidir. Binobarin, xalqimiz uni «axl» ko'rinishida xam ishlatilgan: tuman axli, shahar axli va x.k. Shu bilan bu erda yashovchi xalqlarning yakdilligi, do'stligi, ahilligi ta'kidlangan. «Xalq» axoli tushunchasidan biroz farq qiladi, u etnografik ma'noga yaqin turadi, fuqaro esa ko'proq xuquqiy, siyosiy mazmunga ega. «Shaxs» tushunchasi asosan falsafa, sotsiologiya fanida ishlatiladi.

Aholining rus tilida «naselenie» deb yuritilishida ozroq kamchilik, tushunmovchilik mavjud. Chunki «naselenie» so'zi kengroq biologik ma'noga ega bo'lib, u faqatgina aholiga, kishilar majmuasiga

tegishligina emas. Chunonchi, qushlar, xayvonlar aholisi, populyastiyasi deb aytish xam mumkin. Ana shu chalkashlikni bartaraf etish maqsadida rus ilmiy adabiyotlarida «narodonaselenie»(ya'ni, lyudskoe, a ne jivotnoe naselenie) tushunchasi qo'llaniladiki, bu mazmun va mohiyatiga ko'ra to'riroqdir. Biroq, o'zbek tilida aholini boshqacha talqin qilishga extiyoj yo'q, zero u hamma vaqt kishilar birligini anglatgan.

Axoli juda qamrovi keng, murakkab ob'ekt —tizim xisoblanadi. Moxiyatan u to'la ma'noda sostial —iqtisodiy kategoriyadir. Aholi muammolarining turli qirralari bilan qator failar, shu jumladan, demografiya, etnografiya, tarix, sostiologiya, iqtisod, tibbiyot va boshqalar shugullanadi: bu yagona. umumiy bo'lgan ob'ektda barcha fanlarning o'ziga xos alohida jixatlari, tomonlari, faqat ularnigina qiziqtiradiagan va, binobarin, tadqiqot doirasiga mos tushadigan qirralari mavjud..

Yuqoridagi fanlar qatorida axolini o'rganishda geografiyaning ham o'ziga muiosib o'rni bor. Bu hissa, balki, boshqa fanlarga ko'ra ko'proqdir. Aholi turiladi, o'qiydi, ishlaydi, uylanadi. oilali bo'ladi, farzand ko'radi, dam oladi, davolanadi, vafot etadi va h.k. Uning, aniqroi — Hazrati , Insonning «dunyosi» bor, u tom ma'noda

yashaydi, turmush sharoiti va tarzi, e'tikodi, moddiy va ma'naviy hayoti, urf —odatiga ega. Ana shu serqirrali aholi bilan tutash bo'lgan muammolarning hududiy jihatlarini geografiya o'rganadi. Zero, yuqoridagi voqealar (tabiiy -va notabiiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar) faqatgina qachon va ma'lum vaqt doirasidagina emas, balki qaerdadir, muayyan geografik muhitda, xudud — makonda sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, geografiya aholiii o'rganishda yuqorida tilga olingan fanlar natijalarini umumlashtiruvchi vazifasini ham o'taydi.

Demak, aholini «sof», maxsus geografik o'rgaiishdan tashqari, uni qo'shni, turdosh fanlar qirrasida ham tadqiq etish mumkni. Bu esa fanning rivojlanishidagi muhim ijobiy xususiyati, ichki imkoniyati va fazilatiga ishoradir. Ammo bu borada nihoyatda extiyotkorlik talab qilinadi, aks holda geografiya qolib qo'shni fanga, bir qiroqdan boshqasiga o'tib ketish xavfi bor. Agar ana shu me'yor va mezonlarga rioya qilinsa, turli fanlar usullaridan foydalaninsh tufayli samarali natijalarga erishiladi va bunday tadqiqotlarning amaliy ahamiyati ham beqiyos salmoqli bo'ladi.

Masalan, aholining iqtisodiyot fani qirrasida o'rganilishi uning, eng avvalo, mehnat faoliyatiga ustuvor e'tibor bsrilishini taqozo

etadi. Shuning uchun bu yoʻnalishda asosan mehnat bozorining shakllanishi va ulardan foydalanishni hududiy jihatlari tadqiq qilinadi. Huddi shunday, sostiologiya fani qirrasida aholini oʻrganishda, avvalambor, uning shaxs sifatida shakllanishi, hayot faoliyati, yashash sharoiti va tarzi, kasb — hunari va x.k— lar maʼlum hududiy, birliklar doirasida tahlil etiladi. Bunday yondoshuvni sostiografiya deb atash oʻrinli. Biroq bu tor maʼnodagi sostiografiya keng tarzda esa u, yuqorida taʼkidlaganimizdek, ijtimoiy (inson, gumanitar) geografiyasiga muvofiq keladi.

Aholini oʻrganishda geografiya fani ayniqsa demografiya bilan yaqin turadi. Agar demografiya aholini biosostial kategoriya sifatida uning tabiiy va migratsiya harakatlarini tadqiq etsa, geografiya ana shu muammolarga, eng avvalo, makon jihatdan, hududiy tafovutlarni aniqlash nuqtai nazaridan qaraydi.

Geografik tomonlarni oʻrganishda ikki xolatga eʼtibor qaratmoq lozim. Gap shundaki, bu erda baʼzan geodemografiya tushunchasi ishlatilsa, boshqa hollarda demogeografiya deb yuritiladi. Xoʻsh qaysinisi toʻri? Aslini olganda ikkala tushuncha ham qoʻllanishiga toʻla hakli. Ammo ularni oʻz oʻrnida, mavridida ishlatgan maʼqulroq.

Ushbu muammoni hal etish uchun tizim — tarkib oʻlasiga

murojaat etamiz. Ma'lumki, har qanday tizim (tarkib) asosan ikki ko'rinishda bo'ladi: biri tarmoq, soha tizimi bo'lsa, ikkinchisi hududiy va geotizimdir. Turli xil sharoitlarda ular birlamchi yoki ikkilamchi va demak, tizim yoki tarkib maqomida kelishi mumkin. Bu erda biri gapning egasi bo'lsa, ikkinchisi uning kesimi vazifasini o'gaydi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda qo'yilgan muammo echimiga qaytaylik. Chunonchi, demografiya deganda birlamchi «demo», ya'ni tub demografik jarayonlar nazarda tutiladi. Mazkur tushunchaning ikkinchi qismi esa ana sho' jarayonlarning hududiy tafovutlari, farqlalishini anglatadi. Masalan, aholining tutilish jarayonini o'rganish ishning asosiy maqsadi bo'lsa, u holda bu soha tizimi shaklida ko'rinadi. Biroq, o'z — o'zidal ma'lumki, bu jarayon hamma joyda xam bir xil emas, u o'zining hududiy tarkibi va xususiyatiga egadir. Binobarin, bu erda hudud masalasi soxa, tarmoq tizimiga nisbatan ikkilamchi, tarkib shaklida namoyon bo'ladi.

Geodemografiya- esa ko'rilgan holatning aksidir; bunda ular o'z o'rinlarini almashtirishadi, ya'ni hudud— tizim, demografik jarayon tarkib vazifasini oladi. Agar biz Namangan viloyati aholisini o'rganmoqchi bo'lsak, unda sodir bo'layotgan demografik

jarayonlarni inobatga olishimiz darkor. Boshqacha qilib aytganda, u erda viloyat aholisining o'sishi va joylanishiga ta'sir etuvchi tabiiy va mexanik xarakatlarni taxlil qilish talab qilinadi.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, geodemografik yondashuv ma'lum bosqichda demografiyaga va, aksincha, demog-eografik tadqiqot geodemografik taxlilga o'tib turadi. Keltirgan misolimizda Namangan viloyati tumanlarida aholining tabiiy xprakatini o'rganish geodemografik tadqinotning demogeografik tahliligi o'zgarishini bildiradi.

Albatta, geografik tadqiqotlardp o'ziminig fanimizga ustuvor uru berish maqsadida bunday yo'nalishlarni «goodsmogrlfiya» deb atash to'riroqdir. Mohiyatan u «regional demografiya» tushunchasining o'zginasidir (huddi regional iqtisod, geoiqtisodga o'xshash). O'z navbatida, kasbi demograf bo'lgan mutaxassislar ular qimiqtirgap muammoning hududiy tomonini ham o'rganishlari kerak. Bu yo'siida ularga geografik yondashuv juda qo'l keladi va bajarilgan ishni mazmunan demografik tadqiqot sifatida baxolashlari mumkin.

Axolini asosan geografik jixatdan o'rganishda ham ikki yo'nalish mavjud. Birinchisida axoliga uning o'sishi, yoshi va jinsi, milliy tarkibi

masalalariga ko'proq e'tibor berilsa, ikkinchisida bu jarayonlarning natijasi — aholi punktlari, shahar va qishloqlar to'ri turadi. Rus tilida bu holat «rasselenie» atamasi bilan ifodalanadi. O'zbek tilida hozircha unga ayian mos keluvchi maqbul tushuncha yo'qligi sababli, uni taxminan yoki shartli ravishda aholi va aholi manzilgohlarining joylanishi, ularning kagga — kichikligi. o'zaro hududiy munosabatlari ma'nosida ishlatishga to'ri keladi.

Turli yiriklikdagi shahar va qigaloqlar, ularning murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etilishidagi shakllar esa har xil yoig, jins, millat, elat, kasb — hunarga mansub knshilar uyushmasi bo'lib, ularga makon jixatdan umumiylik shart emas.

Shunday qilib, biz yuqorida axolini o'rganishda demografik jarayonlarning muxim o'rin tutiishni ta'kydladik. Bu xususida iqtisodiy masalalar ham anchagina an'anaviy xususiyatga ega bo'lsa, qolgan «qirraviy» yo'nalishlar uncha rivojlan.magan, Biz bu erda aholini sostiologiya, psixologiya, tibbiyot va boshqa fanlar bilan hamkorllkda taxlil etilipshni nazarda tutmoqdamiz,

Darhaqiqat, o'tgan yillar va sho'rolar davrida aholl iqtisodiy geografiya uchun (qolaversa, mamlakat raxbariyati uchun ham),

eng avvalo, mehnat resursi, ishchi kuchi, ya'ni iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. U ishlab chiqarishning egasi, sub'ekti darajasida baxolanardi, xolos. Vaholanki, aholi- kishilar butun umrlari davomida faqatgina ishlamaydilar, balki ular ayni paytda o'zlari yaratgan moddiy va ma'naviy boylikni iste'mol ham qiladilar. Afsuski, fanimizda ana ana shu insoniy, ijtimoiy jihatlar deyarli o'rganilmagan: o'simlik, hayvonot geografiyasi bor-u. ammo, taajubki, eng oliy mavjudot—Inson geografiyasi yo'q! Shuning uchun fanimiz hamon iqtisodiy bo'lib qolmoqda.

Aholining mehnat va hayot faoliyati albagga ma'lum bir tabiiy va ijtimoiy muhit doirasida kechadi. Bu esa har qanday jamiyat sotsial — iqtisodiy tuzilmasining o'zagini, asosini tashkil etadi. ya'ni barcha ijtimoiy, siyosiy—iqtisodiy jarayonlar markazida eng avvalo tabarruk inson turadi.

Ana shu ob'ektiv holatni hisobga olgan tarzda ko'pgina xorijiy mamlakatlarda biz chun an'ana bo'lib qolgan iqtisodiy, iqtisodiy va sotsial geografiya , ya'ni notabiiy geografik fanlar turkumiga Inson, gumanitar, ijtimoiy geografiya deb yuritiladi. Bunday fanning maksadi jamiyat hayotining hududiy tashkil etilishi o'rganishdan iboratdir. Demak, inson geografiyasi bu aholi geografiyasi emas:

Bu erda birinchisi ikkinchisiga nisbatan ancha kengroq. Shuning uchun, inson yoki ijtimoiy geografiyaga doir masalalarni o'rganish navbatdosh vazifalar bo'lib, ularning echilishi ushbu fanning yanada rivojlanishiga, uning mavqei va nufuzini jahon darajasiga yaqinlashtirishga olib keladi.

Endi bevosita aholini geografik o'rganish masalalariga qaytaylik. Ma'lumki, bunday tadqiqotlar dastavval aholining o'sishi va joylanish muammolarining tahlil etilishini nazarda tutadi. Tabiiyki, aholi soni vaqt davomida o'zgarib turadi, unda tadrijiy siljishlar yuz beradi—ki, ularni geografik jihatdan izoxlash katta ahamiyatga ega. Buning uchun o'rganilayotgan hudud aholisini yaqin o'tmish davridagi miqdor ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil etiladi, o'sish va ko'payish sur'atlari, uning o'rtacha, eng past va eng yuqori darajalari atroflicha o'rganiladi, sabablari, omil va jarayonlari ilmiy jihatdan aniqlanadi.

Odatda, geografik tadqiqotlarda aholining o'tmishdagi(retrospektiv) rivojlanish davrini 15 — 20 yil bilan texlash kifoya qiladi. Aynan shu ko'lamdagi tarixiy davr hozirgi vaziyatni to'ri baholash va uni taxminan shuncha yilga bashorat qilish uchun zamin yaratadi.

Aholining o'sishini o'rganishda uning tabiiy va mexanik harakatlariga murojaat qilinadi. Shu maqsadda tutilish, o'lish, tabiiy ko'payish, gauningdek, aholining ko'chib yurishi —migrastiya jarayonining ,miqdori, iintensivligi, migrastiya qoldii kabilar batafsil taxlil etiladi. Bularning natijasida aholi ko'payishidagi ikki asosiy omil — tabiiy va mexanik harakatning o'rni, hissasi ko'rsatiladi. Mexanik ko'payish yoki kamayishda faqatgina axolining keldi — ketdisi emas, balki ana shu tadqiqot ob'ektining ma'muriy — hududiy jihatdan o'zgarish oqibatlarini ham inobatga olinadi.

Shu bilan birga aholining tabiiy harakatini geografik o'rganishda umumiy demografik ko'rsatkichlar tahlili bilan kanoatlangan ma'qul. Masalan, axoli tutilishi, o'lishi va tabiiy ko'payishining yakuniy ko'rsatkichlari kifoya. Yana bolalar(1 yoshgacha) o'limi, o'rtacha umr ko'rish davri kabilarni xam hisobga olish mumkin. Ammo, maxsus demografik jarayonlar: farzandlar tutilish oraliidagi vaqt, tutilish va o'lish sabablari, oilaning o'rtacha hajmi. oilani «rejalashtirish», oila qurish va ajralish, turli yoshdagi onalarning farzand ko'rish miqdori, farzand ko'rish davrining davomiyligiga o'xshash masalalarni geografik tadqiqotlarda batafsil o'rganish shart emas. Agarda ular ham inobatga olinsa, u xolda geografiya

(xatto demogeografiya va geodemografiya) qolib ketib, sof demografiyaga o'tib qolinadi va tadqiqot natijalari ma'lum maqsad doirasidan chetga chiqib ketadi.

Axoli o'sishini yaxshi tasvirlash va dalillar bilan isbotlash uchun har xil statistik jadvallar, grafik va diagrammalar tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday qo'shimcha materiallar ish matnini yanada boyitishi va ilmiy asoslanishining muhim sharti hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, geografik tadqiqotlarda aholining joylashuv masalalariga jiddiy e'tibor beriladi. Chindan ham bu masala har qanday geografik ishlarning markazida turadi. Sababi — aholining joylanishi, zichligi geografiya fanining bosh falsafiy muammosi bo'lgan tabiat va jamiyat, tabiat va inson masalasiga kelib taqaladi. Aholi zichligi va joylashuvining ko'rsatkichlari ayni paytda ana shu hududning demografik va ekologik siimini aniqlashga yordam beradi, ular joyning mavjud saloxiyatidan qay darajada foydalanishini ham aks ettiradi.

Geografik tadqiqotning chuqur va aniq bo'lishi uchun aholining umumiy va o'rtacha zichlik ko'rsatkichlari bilan chegaralannb qolishi etarli emas. Chunki, ma'lum darajadagi bunday ko'rsatkich cho'lga va vohaga, to va tekislikka, suv va

quruqlikka ham birday dahddor bo'lib qoladiki, bu aslo geografiyaning belgisi hisoblanmaydi. Shu bois tadqiqotda aholi zichligining xududiy tafovutlari, uning turli real geografik rayonlarda — to va to —oddi, tekislik, voha va vodiylarda, shahar atrofidagi miqdori ko'rsatiladi, bularning sabab va qonuniyatlari ochib beriladi.

Axolini geografik o'rganishda uning yosh va jinsiy. milliy tarkiblari ham taxlil etilmoi zarur. Biroq bu kabi demografik va etnografik masalalar, eng avvalo, hududiy tomondan ko'rilishi kerak. Shu bilan birga ularni tadqiq etish va tegishli xulosalar chiqarish asosan axolini ijtimoiy muxofaza qilish, mehnat resurslari va bozorining shakllanishi nuqtai nazardan olib. borilgani ma'qul. Ayni paytda turli millatga mansub bo'lgan axolining xududiy tarkibi, ya'ni etnogeografik masalalarni o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Axolining joylashiigi, albatta, maxsus xarita va grafiklarda tasvirlanishi kerak. Ammo, bunday xar xil ko'rinishdagi ko'rgazma matsriallari bir —birlarini takrorlamasligi. aksincha, to'ldirishlari maqsadga muvofiqdir.

Geografik tadqiqotlarda aholining shahar va qishloq

joylarida taqsimlanishi xam tahlil etilmoii lozim. Bunda aholining nscha foizi shahar yoki qishloqlarda istiqomat qilishi (umumiy urbanizastiya darajasi), shahar va qishloq axolisining o'sish va ko'payishini qiyosiy o'rganish nazarida tutiladi. Shuningdek, shadar va qishloqlar to'ri va tizimi, ularning katta — kichikligi, turli vazifalar bo'yicha taqsimlanishi, aholi manzilgohlarning zichligi, ular o'rtasidagi masofa kabi masalalar ham qisman o'rganiladi. Ushbu muammolarni chuqur va atroflicha taxlil etish esa aynan ularga baishlangan maxsus tadqiqotlar doirasida amalga oshiriladi. Aholi sonining o'sishi va taxlil va tashhis etish uni bashorat qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu vazifa, ilgari qayd qilganimizdek, turli usullar yordamida va har xil ko'rinishda (variantda) bajariladi. Taxminan 10—15 yilga (o'rta muddatga) mo'ljallangan demografik bashoratning hozirgi holatga nisbatan o'zgarishining sur'at va sabablari, uning rayon va boshqa darajasidagi tadrijiy vaziyati tavsiflanadi.

Mavzu: Sanoat geografiyasi o'rganish.

Reja:

1. Sanoat geografiyasini tadqiqot usullarini o`rganish
2. Sanoat geografiyasida o`rganish omillari
3. Sanoat tadqiqot qilishda ba'zi olimlarning fikri

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining salohiyati, avvalo, uning tarkibidagi sanoat ishlab chiqarish rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu sababdan ham iqtisodiy geografik tadqiqotlarda sanoatni o`rganaish alohida o`rin tutadi. O`z navbatida, sanoat shaxarlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, transport xamda hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishida asosiy omil bo`lib xizmat qilyash ushbu tadqiqot yo`nalishining ahamiyatidan darak beradi.

Sanoat xam bamisoli san`atdir. Ma`lumki, san`at — badiiy tasviriy san`atda tabiiy borliq, hodisa va voqeilik sun`iy ravishda o`z shaklini, ko`rinishini o`zgartiradi. Masalan, aktyor o`zi bajarayotgan obrazga moslashsa, tasviriy va amaliy san`atda voqelik umumlashtirilgan holda suratga, rasmga tushiriladi. Xuddi ana stgu oddiy misolga o`xshab sanoatda ham tabiatdan olingan turli xil xom ashyo qayta ishlash jarayonida o`z shaklini o`zgartiradi va iste`molga tayyorlaniladi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan iste'mol buyumlari va mahsulotlariga bo'lgan talab —extiyoj asta —sekin ortib boradi. Natijada, qishloq xo'jaligi —chorvachilik yoki dehqonchilik mahsulotlari etishmay qoladi. Bu avvalari hunarmandchilik va kosibchilikni, keyinchalik esa sanoat ishlab chiqarish va undagi kooperastiya shaklining dastlabki ko'rinishi — manufakturaga zamin yasaydi. Manufakturaning rivojlanishi hozirgi zamon industriyasiga ko'chadi — ki, bu jamiyat taraqqiyotida yangi davrga muvofiq keladi. Sanoatning bunday tarixiy, an'anaviy rivojlanib borishi asosan to'qimachilik tarmoqi negizida amalga oshadi. Qolgan tarmoqlar, jumladan, mashinasozlik va metallurgiya sanoatining dastlabki shakllanishi ko'proq ana shu to'qimachilik sanoatining talablari bilan boliq bo'lgan.

Shu o'rinda aytish lozimki, milliy iqtisodiyotning shakllanishi va uning bozor munosabatlariga o'gish davrida to'qimachilik sanoatining ustuvor darajada rivojlantirilishi muhim ahamiyatga ega. Buning qator sabablari bor: mazkur sanoat ishlab chiqarish jarayoni uncha murakkab emas, uning shakllanishiga katga kapital mabla sarflanmaydi (ishlab chiqarish fondlarining qiymati nisbatan past), bunday korxonalar tez quriladi, ularning rivojlanishi uchun xom ashyo va ishchi kuchi barcha joylarda mavjud. Bularddn tashqari,

to'qimachilik sanoatining yana bir ajoyib xususiyati bor: uning maxsuloti hamma uchun va hamma vaqt kerak, ularning narxi ham ancha arzon. Shu bois ushbu- sanoat tarmoining aylanishi, daromad hosil qilish imkoniyati keng bo'ladi.

Mamlakatni industrialashtirishdagi bunday jarayonni evolyustion yo'l deb atash mumkin. Jaxonning qator rivojlangan mamlakatlarida sinab ko'rilgan tajribalari aynan ana shu yo'nalishning maqbulligidan dalolat beradi. Shu ob'ektiv hakikatdan kelib chiqqan holda respublikamizning turli viloyatlarida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, qisqa vaqt davomida xorijiy investorlar hamkorligida Qoraqalokiston Respublikasi, Samarqand, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Xorazm, Toshkent viloyatlarida zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan korxonalar qurilib, ishga tushiriladi. Eng muhimi — bu mamlakatimizda xom ashyo (paxta va pilla tolasi) bis'yor, mehiat resurslari mo'l va halqimizning bu xususdagi ko'nikma va ishlab chiqarish malakalari xam boy. Geografiyada sanoatni o'rganish asosan ikki, bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishlarda olib boriladi. Birinchisi — bu tarmoqlar yo'nalishi bo'lib, unda ko'proq sof iqtisodiy masalalarga e'tibor qaratiladi va

tarmoqlarning taxlili ularning hududiy tashkil etilishini yoritilishi bilan uy>'nlashtiriladi. Demak, bu erda tadqiqot «tarmoq — hudud» tartibida amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo'nalish iqtisodiy geografiya va ayniqsa, uning rayon yo'nalishga mos tushadigan hududlar doirasida amalga oshirilishidir. Bu erda geotizm oldingi o'rinda turadi va ilmiy ish «hudud — tarmoq» yo'siida olib boriladi. Quyida ana shu yo'nalishga doir ba'zi bir metodik ko'rsatmalar beriladi.

Biror hudud sanoatini o'rganish, avvalo, ushbu viloyat yoki rayonning iqtisodiy geografik o'rni, mamlakat sanoat ishlab chiqarishi va milliy iqtisodiyotida tutgan mavqeini ko'rsatishdan boshlanadi. Tadqiqot ob'ekti mamlakat mehnat taqsimotida sanoatning qaysi tarmoqlariga ixtisoslashganligi aytib o'tiladi.

So'ngra, ishning asosiy qismida xududdagi mavjud tabiiy sharoit va resurslarga sanoat ishlab chiqarishi nuqtai nazaridan baho beriladi, nimaga qulay, noqulayligi ko'rsatiladi. Bu borada faqat u yoki bu tabiiy boylikning geogafiyasini yoritish etarli emas. Binobarin, konlarning zahiralari, qazib olishning texnik — iqtisodiy asoslari va ayniqsa,

ularning xududiy birikmalari batafsil o'rganilishi lozim. Masalan, aytaylik, kokslanuvchi ko'mirning temir ruda konlari bilan o'zaro yaqin

joylashuvi yoki rangli metallar zahiralarning to daryolari bilan bir hududda mujassamlashuvi ushbu sanoat tarmoqlarini tashkil etishda

nihoyatda muhimdir. ,

Albatta, sanoat ishlab chiqarish uchun mineral xom ashyo sifatida turli xil koilar va ularning xududiy birikmalari etakchi ahamiyati ega.

Biroq, shu bilan birga, hududning boshqa tabiiy sharoitlariga ham biroz bo'lsada e'tiborni qaratmoq zarar qilmaydi. Shu jihatdan tadqiqotda er usti tuzilishi — rel'efiga ham baho berilyashi kerak.

Rel'ef faqat sanoatni xududiy tashkil etishga ta'sir qilmaydi; u bilan foydali qazilmalar turi va tarkibi boliq. Chunki, turli xil ma'danlar er yuzasining istagan joyida vujudga kelavermaydi va bu geoximik qonuniyatlardan ma'lum-u ravshandir.

Tadqiqot ishining navbatdagi bandida sotsial —iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Bu erda, eng avvalo, aholi va mehnat resurslari ko'rib chiqiladi. Aholi iste'molchi sifatida, mehnat resurslari esa ishchi ko'chi nuqtai nazaridan o'rganiladi, aholi sonining o'sishi va

joylanishi, uning yosh va xududiy tarkibi qisqacha tavsiflanadi. Shu bilan birga aholi bilan boliq boshqa demografik jarayonlar, uning tabiiy harakatini bu mavzu doirasida tadqiq qilishi aslo shart emas. Aholi geografiyasi masalalari sanoat ishlab chiqarishi va uni hududiy tashkil etish maqsadlari bilan uy>unlashtiriladi. bu xususda, ayniksa, shaxarlar to'ri va tizimi, ularning katta — kichikligi, bajaradigan funkstiyalari va iqtisodiy geografik o'rniga ahamiyat beriladi. Sababi — shahar manzilgohlari aksariyat hollarda sanoat asosida vujudga kelishgan va ular o'z navbatida yangi sanoat korxonalarini joylashtirish imkoniyatlariga ega

Sanoatni xududiy tashkil etish va rivojlantirish omillari orasida transnort va boshqa infrastruktura elementlarining ta'siri kagga. shundan kelyab chiqib, tadqiqot ob'ekti —xududning transport to'ri va tizimi, uning zichligi va boshqa iqtisodiy geografik xususiyatlari taxlil etiladi. Bu borada faqatgina temir va' avtomobil yo'llarigina emas, balki transportning boshqa. turlari — quvur va elektron transporti ham hisobga olinishi kerak.

Rayonning geografik o'rni, uning tabiiy resurslari xamda sostial — iqtisodiy sharoitlari va rivojlanish tarixiy jarayoni qisqacha ko'rib .chiqiladi. Ammo taxlil asosan xozirgi borlyaq nuqtai nazaridan olib

boriladi va shuning uchun bu erda tarixni haddan tashqari «chuqur» olish zaruriyati yo'q (bu tarixiy geografiya bo'lib qoladya).

Tarixiy taxlilda rayonning asosiy sanoat tarmoqlari va ularning etakchi korxonalarini qachon va nima uchun aynan shu joyda o'rnatilgani izohlab beriladi. Shu bilan birga maxsus statistik hisob — kitoblar va jadvallar yordamida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanish jarayoni, o'sish va ko'tarish sur'atlari ko'rib chiqiladi.

Sanoatning hozirgi holati, uning tarmoqlar tarkibi alohida taxlil etiladi. Ixtisoslashgan etakchi tarmoqlar statistik dalillar asosida ko'rsatib beriladi. Sanoat tarmoq tizimidagi o'zgarishlar va ularning sabab — oqibatlarini aniqlanadi.

Bu erda sanoat tarmoining faol yoki faol emaslik darajasini ko'rsatish maqsadga muvofiq. Masalan, agar mamlakat yoki qaysi bir rayon sanoati asosan xom ashe — mineral zahiralarni qazib olish, to — kon sanoatiga ixtisoslashsa, engil sanoat faqat paxta tozalash zavodlaridan, mashinasozlik — qishloq xo'jalik, yo'l mashinalarini ta'mir qilishdan iborat bo'lsa, tabiiyki bunday hodda sanoat ishlab chiqarishi mukammal takomillashgan majmua shaklida bo'lmaydi. Shu bois sanoat ishlab chiqarishdagi turli tarmoqlar, ularning texnologik zanjiri bamisoli ko'p qavatli binodek

qad ko'tarsa, xom ashyo qazib olinib, u tayyor mahsulot darajasiga qayta ishlansa, shubxasiz, bunday xududning sanoat majmui yuksak va rivojlangan hisoblanali. Chunonchi, engil sanoatda sifatli gazlamalar va kiyimlar ishlab chiqarish, mashinasozlikda pribor, radio, televizor, hisoblash mashinalari, kompyuter, videotexnika va boshqa zamonaviy maxsulotlarni yaratish sanoat rivojlanganligining asosiy ko'rsatkichlaridandir.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida sanoat korxonalarining katta — kichikligi, mujassamlashuv darajasiga ko'ra taxlil qilinishi xamda ularni mulkchilikning turli shakllari, davlat va nodavlat sektorlari bo'yicha taqsimlanishini o'rganish kaeta mazmun kasb etadi. Ayniqsa, kichik va qo'shma korxonalar, xususiylashtirish jarayonlarini yoritish va baholash muhimdir.

Tadqiqot davomida sanoat korxonalarini uch asosiy ko'rsatkich bo'yicha guruxlashtiriladi, ularning yalpi maxsulot, ishlab chiqarish fondlari va sanoatda band bo'lgan xodimlar soniga ko'ra bo'linishi ko'rib chiqiladi.

Shu bilan birga, sanoat rivojlanishini o'rganishda muhim bir masalaga e'tibor qaratmoq lozim. Ma'luyki, sobik Ittifoqning parchalaniish va shu tufayli gorizontal (respublikalarlaro) iqtisodiy —

kvoperastiya aloqalarining buzilganligi sababli ko'pgina sanoat tarmoklari, ayniqsa, oir sanoat korxonalarining faoliyati sezilar.li darajada susayib va hatto u to'xtab qoldi. Ikkinchidan. o'tish davrida iqtisodiy barqarorsizlikning bo'lyashi tabiiy holdir. Shu bois taqqoslash usulini mahsulot qiymatiga ko'ra qo'llash nodurustdir. Chunki, narxu navo xozircha turgun emas, o'zgaruvchan. Binobarin, ba'zan sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi mahsulotning natural shakli asosida solishtirib ko'rish ma'qulroqdir.

Shuningdek, «yalpi sanoat maxsuloti» ko'rsatkichi xam hozirgi kunda

o'z axamiyatini yo'qotmoqda. Sababi —agar ilgari umumiy miqdoriy

ko'rsatxichlarga e'tibor berilgan bo'lsa, hozir esa ularning sifati, iste'molchilarga tarqatiliish. raqobatbardosh va xaridorgirligi muhimdir. Shu nuktai nazardan sanoat korxonalarining eksport uchun hamda keng halq iste'mol mollarini ishlab chiqarishini alohida hisobga olish kerak.

Sanoat tarmoqlarining ta'rifini tadqiqot ob'ekti uchun ustuvor axamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan boshlamoq zarur. Buida har bir sanoat tarmoining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, ularning yirik

korxonalari va geografiyasi batafsil ko'rsatib beriladi.

Industriya tarmoqlari geografiyasida ularni joylashtirish omillari tahliliga alohida uru beriladi. Bu xususda tadqiqotchining mamlakatlar tajribasiga ularda ishlab chiqilgan va amaliyotda sinab ko'rilgan ilmiy oyalardan xabardor bo'lmoi kerak. Bular jumlasiga A.Veber, A.Lyosh va boshqa nemis iqtisodchilari tomonidan yaratilgan shtandort va iqtisodiy landshaft nazariyasidan, franstuz iqtisodchilari va ayniqsa F.Perruning kutbiy rivojlanish oyasi, amerikalik olimlarning hududiy iqtisod va tar.moqlararo balans (V.Leontev) ilmiy ishlanmalari kiradi.

Gap shundaki, endigi sharoitda an'anaviy sostialistik dunyoqarash, barcha soxalar va hududlarda tenglikka erishish, ishlab chiqarishni rejali va propostional joylashtirish, hududlar rivojlanish darajasini barobarlashtirish, sostialistik musobaqa va qo'shimcha majburiyat, erishilgan natijadan kelib chiqib planlashtirish kabi tushunchalar o'z ahamiyatani yo'qotdi. Ularning o'rniga ko'p tabaqali iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va uni davlat tassarufidan chiqarish, yakka monopoliyalikka qarshi kurash, solom raqobat muhitini yaratish, erkin iqtisodiyot mintaqalarini shakllantirishga o'xshash biz uchun yangi bo'lgan masalalar

dolzarb bo'lib qolmoqda. Agar avvallari sanoat korxonalarining joylashtirilishi va rivojlantirilishini bevosita davlat rejalashtirgan bo'lsa, endi esa bu muammolar davlat tomonidan maxsus mexanizmlar asosida bilvosita boshqarilib, tartibga solib boriladi.

Sanoat tarmoqlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlarini o'rganishda uning ijtimoiy tashkil etish shakllari, mujassamlashuv, ixtisoslashuv. kooperstiya va kombinatlashni, ularning turli sanoat tarmoqlaridagi o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglab olmoq zarur. Shu maqsadda mujassamlashuvning korxonalar, shahar va hudud darajasidagi ko'rsatkichlari, uning bir shaklini qolganlari bilan munosabati va muvofiqlashuvini, ushbu ob'ektiv jarayonning ijobiy va salbiy tomonlarini bilish talab etiladi. Ixtisoslaiguvining uch ko'rinishi. uning kooperstiya va kombinatlash bilan aloqadorligi hamda sanoat ishlab chiqarishining texnik —iqtisodiy asoslarini ham o'rganish lozim. Bu xususda tor ixtisoslashuv, «yakka hsjimlikning» ka.mchiliklari, turli hududiy ko'lamda kompleks (har tomonlama) rivojlanish qonuniyatlari va afzalliklarini farq qila olish zarur.

Sanoat tarmokini iqtisodiy geografik o'rganishiing asosiy - maqsadi turli tarmoqlarning o'ziga xos xususiyat hamda ularni

xududiy tashkil etishdagi iqtisodiy, tabiiy, ekologik va texnik omillar, qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Masalan, elektroenergetikaning eng muhim xususiyati uning mahsulotni jamarib, to'plab bo'lmasligi, ushbu tarmoqning majmua hosil qilish (boshqa sanoat korxonalarini «o'ziga tortish») qobiliyatida o'z ifodasini topadi. shuningdyok, qora metallurgiya sanoatini xom ashyo temir rudasining mikdoriga qarab turlicha joylashtirilishini, rangli metallurgiyaning elektr energiyasini ko'p talab qilishini, mashinasozlik sanoatini qora metallurgiya bazasi, malakali ishchilar va rayon ishlab chiqarush ixtisoslashuviga ko'ra turlanishini, ximiya sanoat korxonalarini botqa tarmoqlardan farqli o'laroq erkin joylashtirish xususiyatiga ega ekanligini va ayni paytda uning ekologik omil bilan «hisoblashuvini» unutmaslik kerak.

Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishini xududiy tashkil etishdagi an'anaviy omillarning ta'siri sezilarli darajada susayadi va buning evaziga infrastruktura, ekologiya va, ayniqsa, iste'mol omilining ahamiyatini oshiradi. Binobarin, u yoki bu joyda ma'lum sanoat korxonasini joylashtirish faqatgina mavjud sharoitlar bilangina emas. balki ularning mahsulotiga erkin

bozordagi talab bilan beligilanadi.

Tarmoqlar tarkibini o'rganish tarmoqlararo majmualarni aniqlash va tavsiflash bilan nihoyasiga etadi. Masalan, agrosanoat, mashinasozlik, yoqilki — energetika kabi majmualar tahlil etiladi. Maxsus chizma (sxema) lar yordamida ularning texnologik jarayoni va aloqadorligi ko'rsatiladi. Shu maqsadlar ilgari ta'kidlab o'tgan N.N.Kolosoiskiyning energiya ishlab chiqarish stikllari va I.V.Komarning resurs stikllar o'lasini amalda qo'llash yaxshi natijalarga olib keladi va sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish qonuniyatini aniqlashga imkon beradi,

Geografik tadqiqot ob'ekti sanoat tarmoqlaridan tashqari, aloxida sanoat korxonalarini ham o'rganish mumki. Bunda asosiy e'tibor mazkur korxonaning nima uchun aynan shu joyda qurilishi, uniig xom ashyo va tayyor mahsulotni tarqatish geografiyasiga qaratiladi. Shuningdek, korxonaning kadrlar bo'limidagi ma'lumotlariga asoslanib, uniig ishchi xodimlarini shakllanishi, ularning sotsial —demografik tarkibi tahlil etiladi. Albatta, bunday tadqiqotlar uchun rayon va mamlakat ahamiyatiga molik yirik korxonalarini tanlash ma'qulroq. Chunonchi, xorijiy davlatchlar bilan hamkorlikda barpo etilayotgan qo'shma korxonalar ham

o'rganilsa ayni muddao bo'ladi.

Sanoat ishlab chiqarishi geografiyasi tom ma'noda uning hududiy tarkibi va tuzilmasidir, Shuning uchun sanoat ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishini, rayoi va shaharlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganish izlanuvchi faoliyatining markaziy o'rinlaridan joy oladi. Agar ob'ekt mamlakat bo'lsa, sanoatning hududiy tarkibi viloyatlar kesimida, agar u viloyat bo'lsa —tuman va shaharlar darajasida tahlil olib boriladi.

Sanoatning hududiy tizimi uning joylashtirilishini natijasidir. U tarmoqlar tarkibiga nisbatan biroz inert, barqaror va kam o'zgaruvchan, ammo tarmoqlar tizimidagi yangiliklar ertami kech hududiy, geografik siljishlarga olib keladi va aksincha.

Tadqiqotning ushbu bandida ham statistik ma'lumotlar o'rganilib chiqiladi, maxsus jadval va xaritalar tuziladi, mintaqaviy iqtisodga oid har xil raqamlar, boshqa hudud va mamlakat (viloyat, rayon) ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi va shu asosda ichki iqtisodiy tafovutlar, sanoat tugunlari va markazlari aniqlanadi, sanoat geografiyasidagi qonuniyatlar ilmiy izoxlab beriladi.

Hududiy tahlidda sanoatning urbanistik tarkibiga alohida e'tibor beriladi. Sababi —sanoatning hududiy tarkibi bu, eng avvalo,

uning turli yiriklikdagi shaxarlarda mujassamlashuvi demakdir. Shuning uchun shaharlarning sanoati, ulardagi sanoat tarmoining turlanishi (diversifikastiyasi), ixtisoslashuvi, iqtisodiy samaradorlligi va boshqa masalalar o'rganiladi.

Har qanday geografik tadqiqotda bo'lganidek, sanoat geografiyasini o'rganish ham uni rayonlashtirish, sanoatda shakllangan ishlab chiqarish majmualari —sanoat tuguni va sanoat aglomerastiyalarining tahlili bilan yakunlanadi. Bu erda sanoat rayonlashtirilishi ikki yo'nalishda olib bbriladi. Birinchisi —uning oddiy hududny (ma'muriy) tarkibi bo'lsa, ikkinchisi sanoat tarmoqlari va ularning birikmalarini mavjud hududiy tashkil etilish shakllari bo'yicha rayonlashtirishdir. Albatta, ana shu ikkinchi yo'nalish haqiqiy, real rayonlashtirish hisoblanadi.

Industrial rayonlar ichida sanoat tugun va majmualari ajratiladi. Ular ko'proq shahar aglomerastiyalariga hududiy jihatdan muvofiq keladi. Ammo, shu bilan birga, alohida shaharlar tarkibidagi sanoat tugunlarini ajratish xam muhimdir.

Aytish joizki, xorijiy mamlakatlardagi tadqiqotlarning yutui, ahamiyati va amaliyligi ham ana shunday mikroiqtisodiy taxlillarni olib borishidadir.

Sanoat goeografiyasida uning yirik markazlariga alohida ta'rif berish talab etiladi. Sir emaski, barcha shaharlar, eng avvalo, sanoat markazlaridir. Binobarin, ularni umuman sanoat nuqtai nazaridan emas, balki muayyan sanoat tarmoqlari bo'yicha tavsiflash lozim. Masalan, Angren, Olmaliq, Marilon, Namangan, Asaka va boshqa, shaharlar sanoat markazi hisoblanadi. Biroq bunday baholash ilmiy tadqiqotni to'la qanoatlantirmaydi. Shuning uchun ularni muayyan sanoat tarmoi bo'yicha ta'riflash ma'qul: Angrenni yoqili (ko'mir), Asakani mashinasozlik (avtomobilsozlik) sanoatining markazi sifatida ko'rsatish to'riroqdir. Ana shunday geografik vaziyat maxsus iqtisodiy xaritada tasvirlansa, yanada yaxshiroq bo'ladi.

Sanoat rivojlanishi va joylanishini geografik o'rganish ushbu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asoslash bilan to'ldiriladi. Bu soxadagi muammolar turlicha bo'lishi mumkin. Chunonchi, ular tabiiy hamda mehnat resurslaridan foydalanish, xorijiy sarmoyadorlar bilan qo'shma korxonalar barpo etish, erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish masalalaridan kelib chikadi. Xususan, sanoat rivojlanishi va xududiy tashkil etilishidagi ekologik muammolar, o'sish qutbi va

markazlarini aniqlash, ustuvor yoʻnalish va tarmoqlarni belgilash, oʻtish davrida sanoat joylashtirilishini davlat tomonidan tartibga solib borish, sanoat tarmoq tarkibini faollashtirish muammolari nixoyatda dolzarb hisoblanadi.

Mavzu: Agrogeografik tadqiqotlar.

Reja:

1. Qishloq xoʻjaligi geografik tadqiqot usullari.
2. Qishloq xoʻjaligini roʻganish xususiyatlari

Qishloq xoʻjaligi jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining dastlabki shakllaridandir. shuning uchun boʻlsa kerak, Er yuzidagi eng qadimiy madaniyat oʻchoqlari (Nil daryosining quyi qismi. Mesopotamiya, Hind- Gang pasttekisligi, Xuanxe vodiysi, Movarounnahr va boshqalar) suorma dehqonchiligi bilan boliq boʻlgan. Xoʻjalikning bu turi esa oʻz navbatida jamiyat taraqqiyoti, aniq fanlar rivojiga katta taʼsir koʻrsatgan,

Avvalari dehqonchilik mashuloti bevosita quruq iqlimiy mintaqalardagi daryolar va ularning faoliyati asosida olib borilgan. Bunda Nil daryosi yaqqol misol boʻla oladi. Gerodot «Misr —Nil

daryosiniig tuhfası, sovkasi» deb aytgan. Chından ham er sharidagi eng uzun bo'lgan bu daryo o'zining bor kuchini, tabiiy qudratini uzining serhosil allyuvial yotqiziklari bilan vujudga keltirgan deltasida namoyon qilgan. Bu esa dehqonchilikni rivojlaitirishga qulay imkoniyatlar yaratgan. Xuddi shunga muvofiq biz «Xorazm Amu eki Oks daryosining sovasi, natijasidir», deb ta'riflashimiz mumkin. Bu qadimiy o'lkada dastlabki suorish inshootlarining joriy exilishi, aniq fanlarning rivojlanish boisi ham shunda bo'lsa ajab emas.

Qishloq xo'jaligini o'rganish iqtisodiy geografıyaning to'nich yo'nalishidir. Shu bois ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham iqtisodiy geografıyaga oid tadqiqotlar tarixi qishloq xo'jaligini urganishdan boshlanadi. Iqtisodiyotning sohasi — qishloq xo'jaligi xos rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlariga ega. Ular quyidagilar:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonining mavsumiyligi. uning rivojlanish va joylanishiga, eng avvalo, tabiiy (agroiq.limiy, tuprok; va h.k.) sharoitlarning kuchli ta'sir etishi;

2. Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligining sanoatga

nisbatan

ancha pastligi, mehnat va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish

uncha unumli emasligi;

Mazkur tarmoqning xududiy tashkil etish shakli xaritada areal ko'rinishda bo'lib, unda er asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib xizmat qilishi (sanoatda esa bu omil —hudud, korxonalarni joylashtirishdagi asosdir, xolos);

4. Sanoat ishlab chiqarishida uning tarmoklari hududiy jihatdan tashkil qilinsa. qishloq xo'jaligida erning o'zi churLi tarmoqlar uchun tashkil etiladi:

5. Geografiyaning tadqiqot ob'ektlari orasida qishloq xo'jaligini kartaga tushirish. kartalashtirish imkoniyatlari juda keng. Binobarin, ushbu soha kartada sanoat yoki shaharlar singari yaqqol ko'zga tashlanmasada, u ularga ko'ra geografiyroq va hududiyroqdir;

6. Qishloq xo'jaligida rayonlashtirish ko'proq hududni rayonlashtirish bilan boliq bo'lib, u mamlakat maydonining deyarli barcha

qismlarini qamrab odadi, Shu bilan birga rayonlashtirish faqat hudud va qishloq xo'jaligining u yoki bu sohasiga ixtisoslashuvigagina emas, balki uruchilyk va meva navlarini o'rinlashtirishga nisbatan ham amalga oshiriladi (ya'ni ular joyning tuprok — iqlim, er — suv va boshqa sharoitlarini hisobga olib ekiladi, o'stiriladi);

7. Agrar. sohada ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil etilishdagi shakllar, ayniqsa, hududiy mujassamlashuv va kombinatlash nisbatan kam rivojlangan;

8. Mulkchilikning turli shakllari ko'p ukladli iqtisodiyot qishloq xo'jaligida kengroq tarqalgan, bu sohani xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish imkoniyatlari ham o'ziga xos.

Yuqorida keltirilgan qishloq xo'jaligining rivojlanishi va joylashtirishdagi xususiyatlar uni iqtisodiy geografik jihatdan o'rganishning asosiy tomonlarini belgilab beradi.

Agrogeografik tadqiqotlar mavzui ham sanoat geografiyasidagi kabi juda keng va- turli— tuman. Masalan, alohida qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan tashkari, er fondi, undan foydalanish, suv geografiyasi, tabiiy sharoitlarga, jumladan, agroiqlimiy va tuproq omillariga iqtisodiy baho berish, qishloq xo'jaligini rayonlashtirish va uing hududiy tizimlari, agrosanoat majmualarining gaakllanishi va rivojlanishi, qinloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va ekologik muam.molar, nihoyat, yuqoridagi barcha yo'nalishlarni o'z qamrovida mujassamlantiruvchi rayonlar (viloyat va mamlakat) qishloq xo'jaligining iqtisodiy geografik tavsifi kabi mavzular ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar toifasiga kiradi. Shuningdek, malakatimiz iqtisodiyoti uchun nixoyatda muxim bo'lgan don (alla) mustaqilligining geografik jihatlarini o'rganish, paxtachilik, qorako'lchilikka o'xshash etakchi tarmoqlarni tadqiq qi^shsh ham dolzarb muammolardandir. Rayonlar yo'nalishidagi tadqiqotlarda esa asosiy e'tiborni aynan shu huxud uchun ai'anaviy va unga xos bo'lgan sohalarni tahlil etish qiziqarli natijadar beradi.

Mavzuni tanlab olishga- atroflicha yondashish kerak. U, eng avvalo, kam o'rganilgan va hudud iqtisodiyoti uchun ustuvor

ahamiyatiga ega muammo bo'lmoi lozim. Shu nuqtai nazardan Andijon viloyatining chorvachiligi (qo'ychiligi)ni, Ustyurt yoki Qizilqumda sabzavotchilikni o'rganish antiqa bir ho'ldir. Chunki, axolisi o'ta tiiz joylashgan (har bir kv.km.ga yaqin 500 kishi to'kri keladigan), er maydoni suorish dehqonchiligida intensiv foydalanadigan Andijon viloyatida qo'ychilik haqida so'z yuritish mumkinmi o'zi?!

Rayon (mamlakat) qishloq xo'jaligining iqtisodiy geografik ta'rifi, avvalo, bu sohaning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va uning shakllanish jarayonini qisqacha bayoni bilan boshlanadi. So'ngra, tadqiqot ob'ektining tabiiy va sostial —iqtisodiy sharoitlari batafsil taxlil etiladi va qishloq xo'jalik tarmoqlari nuqtai nazaridan baxolanadi.

Tabiiy sharoitlar ichida asosiy e'tibor agroiklimiy, tuproq, rel'ef, suv va o'simlik dunyosiga qaratiladi. O'z navbatida agroiklimiy omillar doirasida harorat rejimi va vegetastiya davri, yoin — sochin miqdori va uning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi, shamol va qor qatlami, shuiingdek, dehqonchilik uchun noqulay bo'lgan quroqchilik, do'l singari ob —havo sharoitlari ko'rib chiqiladi. Shu maqsadda rayon meteostanstiyasi

ma'lumotlari va maxsus manbalar o'rganiladi. bularning natijasida rayonning turli qismlarini _qishloq xo'jaligining aynan qaysi yo'nalishlari uchun qulay yoki nokulayligi. aniqlanadi. rayonlashtiriladi va xaritaga tushiriladi.

Tuproq sharoitining taxlilida uning tapi va turlari, fizik va kimyoviy xususiyatlari ko'rib chiqiladi, tuproqning sho'rlanish va eroziya holatlari e'tiborga olinadi. Bu borada tuproq bonitirovkasi va er kadastri ma'lumotlari bilan tanishish katta natijalar beradi,

Qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda rel'ef sharoitlarining ta'siri sezilarlidir. Er usti tuzilishi bilan ekin maydonlarining katga —kichikligi, ish jarayonida texnika vositalarini qo'llash imkoniyatlari, aholi va transport tizimini joylashtiish va rivojlantirish masalalari bir —biri bilan boliq.

O'rta Osiyo, jumladan, quruq iqlimli O'zbekiston uchun suv resurslarining ahamiyati beqiyosdir. Qolaversa, o'lkaning boy madaniy tarixi, eng avvalo, suv manbalari va suorish dehqonchiligining qadimdan tarib etilganligi bilan bevosita aloqadordir. Shu sababdan mintaqa axolisining joylanishi asosan suv resurslari va ularning hududiy tarkibi bilan belgilanadi.

Rayon geografiasining taxlilida er usti va er osti suvlarining xolati, ularning nishabligi va joylanishi xam o'rganilmoi kerak. Shu bilan birga, su» resurslarining qishloq xo'jaligi (dexqonchilik) uchun qulay bo'lgan erlarda mavjudligiga alohida e'tibor beriladi. Chunki, tabiatda aksariyat hollarda suv bor joyda haydash uchun erlar kam.yoki yo'q va, aksincha, byyoyon cho'l mintaqalarida suv zahiralari etishmaydi.. Bunday hududiy nomuvofiqlar odatda sun'iy suv inshootlar — suorish kanallari va suv omborlarini qurish yordamida xal etiladi. Ular esa dexqonchilik va qishloq aholi geografiasidagi o'zgarishlarga olib keladi. Masalan, Mirzacho'l, Markaziy Fargona, Jizzax, Qarshi, Surxon - Sherobod, Ellikkal'a massivlarini o'zlashtirish bu joylarda yangi iqtisodiy va ijtimoiy geografiani vujudga keltirishga sabab bo'ladi.

Machlumki, iqtisodiy geografiyada tabiiy sharoit elementlariga alohida — alohida baho berish bilan birga ularni o'zaro aloqadorlikda taxlil qilish samarali natija beradi. Bu borada iqlim, rol'ef, suv, tunroq sharoitlarini birgalikda o'rganish qishloq xo'jaligi geografiasidagi muhim qonuniyatlarni bilib olishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

jumladan. Belorussiya, Rossiyaning Vologda viloyati yoki Boltiqboʻyi respublikalarini olaylik: bu joylarning relʼefi asosan tekislik, yokin —sochin mikdori esa koʻp, namgarchilik yuqori. Bunday landshaftlarda daryolar tizimi rivojlangan boʻladi. Biroq tekislik sharoitida daryo va daryochalar koʻp, ularning qayiri ham keng. Ana shu daryo sohillari va ularning qayirlari bahor va yoz oylari yam —yashil oʻtldr bilan qoplanadi. Bu esa-sut —goʻsht chorvachiligini rivojlantirishga juda qulay sharoit tudiradi.

Oʻzimizning Samarqand, Jizzax, Surxondaryo viloyatlarining to oldi qismlarida relʼef, namgarchilik va tuproq sharoitlari bahorikor (lalmikor) dehqonchilikni rivojlantirishga imkon beradi. Farona vodiysining adirlarida, Toshkent viloyatining to oldi qismlarida esa tabiiy sharoitlar bodorchilik va uzumchilikni rivojlantirishga nihoyatda qulaydir.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, tabiiy sharoit komponentlarini -alohida, «donalab» oʻrgangandan koʻra ularni oʻzaro aloqadorlikda baxolash yaxshiroq. Aynai ana shunday tahlil xoli qiladi va buning evaziga ilmiy qonuniyatlarni aniqlashga koʻmak beradi.

Sostial — iqtisodiy sharoitlar tarkibida aholi va mehnat resurslari

etakchi o'ringa ega binobarin, rayon aholisining soni, uning o'sishi va joylanishi (zichligi) qisqacha ko'rib chiqiladi. Kishloqlarning katta — kichikligi, ularning ekin maydonlariga uzoq —yaqinligi ham o'rganiladi va qishloq aholisining geografiasidagi asosiy xususiyatlar qishloq xo'jaligining tarmoqlar tarkibi va ularning hududiy tashkil etishi, ishchi kuchiga bo'lgan ehtijsi bilan izohlanadi. Chunonchi. ko'p mehnatni talab qiluvchi suorma dehqonchilik rayonlarda (vohalarda), bodorchilik va uzumchilik rivojlangan hududlarda, odatda, qishloqlar yirik va ular zich joylashgan bo'ladi.

Aholini qishloq xo'jaligi geografiasini nuktai nazaridan uning yuqoridagi jihatlari o'rganish bilan qanoatlangan ma'qul. Shu bois bu erda aholining tuzilishi, o'lishi, uning tabiiy va mexanik ko'payishi. jinsiy va milliy tarkiblari kabi o'zgacha ahamiyat (mavzu)ga mansub demografik masalalarni tahlil etish zarur emas. Ammo aholi joylashuv tizimi, yirik shaharlar va ularning aglomeratsiyalarini inobatga olmoq mavjud ma'noga ega bo'lib, ular shahar atrofi qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Aholi manzilgoxlaridan tashqari ma'alliy transport tizimini,

rayonning transport geografik o'rnini taxlil etish lozim. Shu maqsadda aholi va transport yo'llarining joylashuv xaritasi tuzilsa, tadqiqot mazmuni yanada boy va dalilli bo'ladi.

Qishloq joylaridagi mavjud infrastruktura tizimi, mashina va traktorlar bilan ta'minlanganligi, elektr energiyasi, ishlab chiqarish fondlari ham sosial — iqtisodiy omillar sirasiga kiradi. Shu bois ularni hisobga olish ahamiyatdan xosini emas.

Rayon tabiiy- va sosial — iqtisodiy sharoitlari qishloq xo'jaligining tarmoqlari va hududiy tarkibini o'rganishga zamin yasaydi. tarmoqlar tahlilini esa tadqiqot ob'ekti uchun ushuvor ahamiyatga ega bo'lganidan boshlamoq maqsadga muvofiqdir. Masalan, voxa va vodiylarda dehqonchilik, cho'l mintaqalarida — chorvachilik birinchi navbatda ko'rib chiqilishi kerak. Buning natijasida qishloq xo'jaligining ikki bosh tarmoqi — dehqonchilik va chorvachilikning yalpi mahsulot yaratishdagi mavqei taxlil qilinadi.

Shu bilan birga dehqonchilikning tarkibiy qismlari ham tavsiflanadi, dehqonchilikda xar xil ekinlarini etishtirish dinamikasi, tannarxi, hosildorligi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar mulkchilikniig turli shakllari bo'yicha o'rganib chiqiladi va

ularning natijasi maxsus jadval hamda kartogrammalarda aks etiriladi. O'zbekiston sharoitida paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bogdorchilik va uzumchilikka alohida e'tibor qaratiladi. Respublika vohalardagi xo'jalik tarmoqlari bilan birgalikda pillachilik ham o'rganiladi. Cho'l mintaqasida esa bu erning etakchi yo'nalishi bo'lmish chorvachilik. uning ixtisoslashuvi, yaylovi va e.mxashak imkoniyatlari taxlil qilinadi. Lsosiy tarmoqlarni iqtisodiy o'rganish ularning hududiy tarqalishi bilan birga ko'rib chiqiladi.

Viloyat, iqtisodiy rayon yoki mamlakat kishloq xo'jaligini geografik o'rganishning keyingi qismi uning xududiy tarkibini tadqiq etishdan iboratdir. Bunday hududiy tahlil turli shaklda olib boriladi. Masalan, Toshkent viloyati qishloq xo'jaligini uning 15 ta ma'muriy tumanlari, to oldi va tekislik rayonlari, Chirchiq va Oxangaron vodiylari (havzalari) Toshkent shahar atrofi va boshqa xududiy birliklar kesimida o'rganib borilishi mumkin.

Ajratilgan qismlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini rayonlashtirishning ba'zi bir shakllariga mos kedadi. Ammo xaqiqiy qyshloq xo'jalik rayonlari hududga qarab emas, balki muayyan qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvidagi hududiy

tafovutlar asosida amalga oshiriladi. Bu o'rinda qshdloq xo'jalik rayoilariga bakishlangan maxsus xarita tuzish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni rayoNlar bo'yicha statistik jadval, digaramma va grafiklarda aks ettirish katta ahamiyatga ega.

Ayni paytda qishloq xo'jaligining rayonlashtirilishi tabiiy sharoit va uniig hududiy farqlanishi bilan belgilanadi. Binobarii, bunday rayonlar tabiiy — xo'jalik rayonlari deb ataladi. Demak, bu erda ham tabiiy omilning ta'siri katta. Fakat yirik sanoat markazlari atrofida shakllangan, ixtisoslashgan qishlok xo'jalik rayonlari shaharlar ryvojlanish va urbanizastiya omiliga boliiq.

Shu bilan birga tadqiqotchi qishloq rayonlari tarkibiniig istiqboldagi o'zgarishini ham oldindan aniqlay olishi kerak. Chunonchi, Toshkent shahri atrofidagi paxtachilikning chekinib borish va o'ning o'rniga sabzavotchilikning rivojlanishi nazarda tugish mumkin. Shuningdek, Faron vodiysida ham paxtachilik gyoografiyasida jiddiy o'zgarishlar ko'zda tutiladi. Vodiyda bu texnik ekin asta — sekin tooldi (adir) mintaqasidan hamda yirik shaharalar atrofidan uzoqlashib boradi. Buning evaziga mintakada mevachilik va uzumchilik, pillachilik va sabzavotchilikning keng rivojlanish ehtimoli bor.

Mazkur sohani rayonlashtirish tarmoqlararo majmualar shakllanishining ta'rstfi bilan to'ldirilsa, ish mazmuni yanada boyiydi. bundan tashqari, agrosanoat majmua va uyushmalari, ularning tarmoqlari va hududiy tizimlarini o'rganish ham talab etiladi.

Kishloq xo'jaligi tarmoqarini joylashtirish qoiuniyatlarini bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi xususiyatlarini anglab olish xam zarurdir. Chunonchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy tizimlari, o'tgan asrning birinchi yarmida Germaniyada I.Tyunen tomonidan yaratilgan va amaliyotda qo'llanilgan shahar atrofida qishloq xo'jaligini joylpigirish, «Geografik yoki yashil konveyer» kabi ilmi oyalarini bilish bu masalalarni aniqlashga yordam beradi.

I.Tyunen ishlab chiqarishni joylashtirish masalalari bilan shugullangan birinchi mutaxassisdir. U iste'molchilarga (shaxarga) nisbatan qishloq xo'jalik tarmoqlarini,, ularning mahsulotini is1-e'mol qilinishi xamda transportda tashib keltirish imkokiylariga qarab hududiy tashkil etish tartibini yaratgan. jumladan, u xar doim va ha.mma uchun kerak bo'lgan qishloq xo'ja.lyak mahsulotlari bevosita shaxar atrofida etishtirilishi lozimligini

asoslab bergan. Shu bilan birga uzoq masofadan tashilishi noqulay yoki keltirish jarayonida sifati buzilib (aynib) qoladigan mahsulotlar ham iste'molchilarga iisbatan yaqin joylashtirilishi kerak, shu tartibda shahar atrofida sabzavotchilik, sut chorvachiligi, donchilik, yaylovlar, go'sht chorvachilig-i va boshqalar tatkil etiladi. Bunday joylashtirish halqasimon bo'lganligi sababli, bu oya ilmiy adabiyotlarda «Tyunen xalqalari» deb yuritiladi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida taklif, ishlab chiqarishga ko'ra talab —ehtiyojning ahamiyati oshadi. Shu bois qaerda qanday kishlok xo'jalik mahsulotini etishtirishni bozor belgilaydi. Demak, hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligining ixtisoslaiguvi mahalliy va jahon bozori hamda narx —navo siyosati bilan aniqlanadi.

Tadqiqot ishini bajarishda. qishloq xo'ja.shgini rivojlantirish va joylashtirishning turli muammolarini xam o'rganish kerak. masalan. er — suv va boshqa imkoniyatlardan 1o'ri hamda samarali foydalanish. qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va uning hududiy tarkibini takomillashtirish. paxta yakka xokimlt'iga barxam berish evaziga don mustaqilligiga erishish,

chorvachmlikning em —xashak bazasini mustaxkamlash, dehqon — fermer xo'jaligi va tadbirkorlikni («a!robiznes»ni) rivojlantirish shular jumlasidandir. Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli (qatlamli) iqtisodiyotni, mulkchilikning turli shakllarini keng joriy qilish, bu soxada zarur islohotlarni chuqurlashtirish va ularni davlat tomonidan qo'llab — quvvatlash, erkin raqobat muxitini yaratnsh xam dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, sanoatta nisbatan qishloq xo'jaligida xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish imkoniyatlari biroz cheklangan. Qolaversa, halqimizniig o'zi ham bu "sohada boy tajribaga ega, binobarin, asosiy vazifa mulkchilik shakllarini avj oldirish, qadimiy an'analarni tiklash va ularni keng tarib qilishdan iborat bo'lmoi kerak.

Yana bir muxim muammo —qishloq joylar ekologiyasini yaxshilashdir. Buning uchun turli xil mineral o'it va boshqa kimyoviy mahsulotlardan to'ri va me'yoriy foydalanish, agroximiya hamda meliorastiya ishlarini yaxshilash zarur. Ayniqsa, suv omborlarining qurilishini atrof. Ilcha illiy asoslash, tuproq sho'rlanishining oldini olish, grunt suvlari sathini iasaytirish va boshqalar dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Ko'pchilikka ma'lumki, to etaklarida barpo etilgan katga —kichik suv omborlarining quyi kismida noxush ekologik vaziyat vujudga kelmoqda —er osti suviing ko'tarilishi qishloq xo'jalik ekinlari, mevachilik, uy —joy qurilishi va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun gidrotexnik Inshootlarning ekologik okibatlarini ham oldindan bilish va baxolash zarurdir.

Qishlok, xo'jaligining tabiiyligi, ishlab chiqarshi jarayonining oddiyligi va uning tabiiy sharoitga vobastaligi tufayli bu sohada sanoatdagidek ilmiy oya yoki qonuniyatlar, texnologik yash'iliklar yaratish qiyinroq. Biroq, igunga qaramasdan, agroiqlimly taroirlarni, qishloq xo'jalik ekinlarining biologik xususiyachlarini, tuproqning fizik va kimyoviy tarkibini o'rganish talab etiladi. Shu bilan birga dalachilikda ilmashlab ekish, paxtachilik va pillachilikni davriy — hududiy jihatdan o'zaro muvofiqlashgan holda tashkil qilish, donchilik bilan parrandachilik, sabzavotchilik va kartoshka etishtirish bilan sut —go'sht chorvachiligini yagona hududiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida shakllantirish, shaharlar atrofi qishloq xo'jaligining o'ziga xos tarmoqlarini intensiv rivojlantirish kabi qonuniyatlarii tadqiqotchi bilmoi kerak.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi iqtisodiy geografiyaning haqiqiy va xaqqoniy ob'ekti hisoblanadi. Buning boisi erning (hudud yoki maydonning) ishlab chiqarish vositasi sifatida xizmat qilishidir. Xuddi shu ma'noda to — kon (qazib oluvchi) va baliq sanoati ham bevosita an'anaviy iqtisodiy geografiyaga taaluqlidir. Chunki, ularning ham mahsuloti er qobii yoki suvdan, tabiatdan olinadi. Qayta ishlovchi sanoatda vaziyat o'zgacharoq. Bu erda sanoat korxonasiining faoliyati texnologik jarayonni takomillashtirish asosida xom ashyoni to'la qayta ishlash va ishlab chiqarish chiqindilaridan unumli foydalanish bilan maxsulot yaratish tom ma'noda ushbu korxonaning iqtisodiyotidir.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga muvofiq hududiy ishlab chiqarish majmualari yoki sanoat tugunlari .Isuf ko'rinishdagi iqtisodiy geografiyadir. Sababi — bularning zaminIda hududning umumiyllgi, yagona infrastruktura tizimi tufayli erishiladigan qo'shimcha (aglomerastion) samaradorlik, korxonaninng o'zaro Xududiy —iqtisodiy munosabatlari yotadi. Shu o'rinda iqtisodiy geografiya oddiy mintaqaviy (regional) iqtisoddan biroz farq qiladi. Chunki, bu ma'noda hududiy iqtisodiyot ana shu makonda

joylashgan korxonalar iqtisodiyotining oddiy (additiv, summativ) yiindisi, tizimidir, xolos. Iqtisodiy geografiya esa bunga ko'ra murakkabroq va takomillashgan hududiy aloqalaridan xam yuzaga keladi. Turli xildagi mineral xom ashyo, tabiiy sharoit va resurslarning, transport va boshka infrastruktura shaxobchalarining alohida — alohida qismlari emas, balki ularning hududiy uyushmalari, birikmalari asosida ishlab chiqarish tarmoqlarining bir —birlari bilan aloqada bo'lishi va aynan. shu tufayli erishiladigan hududiy iqtisodiy manfaatli (natijalar) iqtisodiy geografiyaning asl mohiyatini ifodalab beradi.

Hududiy—iqtisodiy munosabatlar, albatta, transport orqali amalga oshiriladi. Binobarin, iqtisodiy geografiyani transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. shuning uchun transport tarmoi ham alohida iqtisodiy geografik jihatdan o'rganilishiga haqlidir, bunda turli mamlakat va rayonlarda ularning geografik o'rni, tabiiy sharoiti (rel'ef va iklimi), xo'jalik ixtisoslashuvi va aholi manzilgohlarining joylanishiga qarab transport tarmoqlarining xususiyatlari tadqiq qilinadi. Avtomobil, temir yo'l, quvur, elektron va havo naqliyotlari, ularning yo'lovchi va yuk tashishdagi mavqelari o'rganiladi, olingan natijalar maxsus statistik jadval va

xaritalarda aks ettiriladi.

Shuningdek, ishlab chiqarish infrastrukturasi boshqa elementlari ham tadqiq va tahlil qilinishi kerak. Ammo, bu erda infrastrukturani muhim bir xususiyatini unutmaslik lozim. Bu ham bo'lsa, uning bevosita moddiy va ma'naviy boylik yaratmasligi va, shu bois, alohida halq xo'jaligi tarmoqi emasligidir. Infrastruktura ishlab chiqarish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatadi va u buning uchun, eng avvalo, sharoit yaratadi. Masalan, transportni olaylik: agar uning yuk yoki yulovchini tashish vazifasini nazarda tutsak, u shubhasiz, xo'jalik tarmoidir. Agar transport vositasi va yo'llari, ularning ushbu vazifani amalga oshirishdagi sharoitlari (elektrlashtirilganligi, kengligi, asfalt bilan qoplanganligi va h.k.) inobatga olinsa, u infrastruktura bo'ladi. Xuddi shunday elektroenergetika, irrigatsiya va boshqalarni ko'rish mumkin. Elektr - energiyasining uzatuvchi tarmoqlar, kanal yoki suv omborlarining shart —sharoitlari, siimi, jihozlanganligi, zamonaviy texnika vositasi bilan ta'minlanganligi kabilar infrastruktura xos belgilardir. Infrastruktura geografiyasi — hali o'rganilmagan «qo'riq» soha hisoblanadi. Shuning uchun bu yo'nalishda ham tadqiqotlar o'tkazish qiziqarli va ayni paytda

katta amaliy ahamiyatga ega, jumladan, hozirgi kunda ilmu—fan, bozor iktisodiyoti infrastrukturasi o'rganish, marketing geografiyasi, moliya - bank, kredit tuzilmasini tahlil etish va ularni ham maxsus xaritaga tushirish muhim masalalardandir.

Асосий адабиётлар

1. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов. М., 1999.
2. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н. Аҳоли географияси. Маърузалар матни. Т.,2000.
3. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. М.,1999.
4. Медков В.М. Демография. Учебник. М., 2004.
5. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения. М., 2004.
6. Умарова М.А., Артыкбаев Р.Д. Основы демографии. Т., 2001.

Кўшимча адабиётлар

7. Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана.Т., 2002.
8. Ата-Мирзаев О.Б, Гентшке В, Муртазаева Р. Узбекистан, многонациональный: историко-демографический аспект. Т. ,1998.
9. Артыкбаев Р.Д., Мухаммаджанова М.М. Демографические проблемы Узбекистана и международные организации // География и использование природных ресурсов. Т.. 2001.С. 101-104.
10. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. Т.,2002.
11. Буриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане. Т.,1991.
12. Демографический энциклопедический словарь. М., 1985.
13. Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. Т.,2001.
14. Максаковский В.П. Географическая картина мира: Кн.2. Региональная характеристика мира. М., 2004.
15. Народонаселение мира в 2005 году. Нью-Йорк: UNFPA, 2005.
16. Народонаселение. Энциклопедический словарь. М.,1994.
17. Население Узбекистана. 1991 – 2001 годы. Стат. сборник. Т., 2002.
18. Ортықбоев Р.Ж. Ўзбекистон аҳолиси ва аҳоли манзилгоҳлари мустақиллик даврида // Истиклол ва география.Т., 1995. 173-176 бетлар.
19. Райимжонов З.Х., Ортықбоев Р.Ж., Саъдуллаев А. Орол экологик

кризисининг демографик оқибатлари // Истиклол ва география.
Т., 1995, 108-114 бетлар.

20. Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Умарова Н.О. Ўзбекистон
демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги (илмий-ўқув қўлланма).Т.,
2006.

21. Human geography: Landscapes of human activities. Sixth edition.
Boston, 1999.